



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

VATANPARVAR

BO'LMAS

El bor bo'lsa, er xor bo'lmas,
Er bor bo'lsa, el xor bo'lmas.
Vatan – nomus chin yigitga,
Bundan ortiq iqror bo'lmas.

Vatan uchun to'kilsa qon –
Qanday sharaf, qandayin shon.
Gar ko'ksingda uyg'oq vijdon,
Bundan ortiq tumor bo'lmas.

Ma'rifatga tolib bo'lsang,
El orini olib bilsang,
Yovni yengib, g'olib bo'lsang,
Bundan ortiq xumor bo'lmas.

Doim ko'ngli chog'dek bo'lsang,
Bir gullagan bog'dek bo'lsang,
Himoyaga tog'dek bo'lsang,
Bundan ortiq viqor bo'lmas.

Er yigitga ibrat uchun,
Adolatli davlat uchun,
Vatan uchun, millat uchun,
Bundan ortiq shior bo'lmas.

El kuyunsa, kuyunar er,
El suyunsa, suyunar er.
Yengilmasday tuyular er,
Vatandek shahsuvor bo'lmas.

Muhiddin ABDUSAMAD



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 6-FEVRAL
№6 (3172)



Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!

YANGI O‘ZBEKISTONNING



2026-yil 13-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi mamlakat harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash masalalariga yangicha, strategik qarashni namoyon etdi. Yig‘ilishda bildirilgan fikr va belgilangan vazifalar bir haqiqatni yanada oydinlashtirdi: bugun tinchlik eng qimmatbaho boylik bo‘lib, u davlat barqarorligi va taraqqiyotini ta‘minlovchi strategik resursga aylandi.

REAKTIV YONDASHUVDAN PROAKTIV TAFAKKURGA O‘TISH

Zamonaviy dunyoda tinchlikni saqlash endi faqat kuch ishlatish yoki harbiy qudratni namoyish etish bilan cheklanmaydi. U oldindan o‘ylangan, tizimli, intellektual yondashuvni talab qiladi. Shu ma’noda Prezident Shavkat Mirziyoyev barcha soha va tarmoqlar xavf-xatarlarga oldindan javob qaytarishga qodir “proaktiv ish rejimi”ga o‘tishi shartligini alohida ta’kidladi. Bu fikr milliy xavfsizlik siyosatida sifat jihatidan yangi bosqich boshlanganini anglatadi.

Proaktiv va reaktiv ish rejimlari o‘rtasidagi farq bugun global beqarorlik, tez o‘zgaruvchan tahdidlar va asimmetrik xavflar sharoitida har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. **Reaktiv** yondashuv, odatda, muammo yoki tahdid yuzaga kelgandan so‘ng ishga tushib, vaziyatga shoshilinch moslashish, resurslarni favqulodda tarzda safarbar qilish, qisqa muddatli qarorlar qabul qilish talab etiladi. Bunday sharoitda inson omiliga bosim ortib, xatolik ehtimoli, moliyaviy xarajatlar, ijtimoiy va ma’naviy yo‘qotishlar ko‘payishi muqarrar bo‘ladi. Eng muhimi, reaktiv yondashuv ko‘p hollarda oqibatlar bilan kurashishni anglatib, tahdid manbaiga chuqur yechim berish imkonini cheklab qo‘yadi.

Proaktiv yondashuv esa mutlaqo boshqa strategik tafakkurga tayanadi. U xavf-xatarlarni oldindan ilg‘ash, ularning ehtimoliy rivojlanish yo‘llarini tahlil qilish, doimiy monitoring va prognoz asosida ssenariylar ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bunday yondashuvda profilaktika asosiy vositaga aylanadi, ya’ni oldindan belgilangan harakat algoritmlari, rezerv resurslar, tayyor kadrlar va raqamli boshqaruv tizimlari orqali xavf hali yuzaga kelmasidan oldin uning ta’siri cheklanadi. Natijada davlat va jamiyat tizimlari barqaror ishlaydi,

xarajatlar optimallasadi, qaror qabul qilish jarayoni izchil va samarali bo‘ladi.

Aynan shu ma’noda proaktiv ish rejimi nafaqat harbiy sohada, balki davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, axborot xavfsizligi va jamiyat barqarorligi uchun ham eng to‘g‘ri va zamonaviy yo‘l sifatida namoyon bo‘lmoqda.

YANGI DOKTRINA ZARURATI OCHIQ VA QAT’IY QAYD ETILDI

Prezident ta’kidlaganidek, zamonaviy urushlar tabiati so‘nggi yillarda tubdan o‘zgardi va bu jarayon ortga



qaytmaydigan global tendensiyaga aylandi. Endi g‘alaba qaror qabul qilish tezligi, axborot ustunligi va texnologik afzallik bilan belgilanmoqda. Raqamli boshqaruv tizimlari, sun‘iy intellektga asoslangan tahlil va prognoz, kiber va robot texnologiyalari, shuningdek uzoq masofadan yuqori aniqlikda ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlari zamonaviy harbiy qudratning asosiy o‘lchoviga aylandi. Bunday sharoitda kechikib qabul qilingan qaror, hatto kuchli resurslarga ega davlat uchun ham jiddiy strategik yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Shu bois sakkiz yil avval qabul qilingan Mudofaa doktrinasi va 1997-yilda tasdiqlangan Milliy xavfsizlik konsepsiyasini qayta ko‘rib chiqish zarurati ochiq va qat’iy tarzda qayd etildi. **Bu yangilanish O‘zbekistonning xavf-xatarlarni oldindan baholaydigan, profilaktikaga tayangan va strategik fikrga asoslangan mutlaqo yangi – proaktiv mudofaa siyosatiga o‘tishi demak.**

Yangilanadigan doktrina O‘zbekistonning tashqi siyosatdagi asosiy prinsipi hech qaysi harbiy blokka qo‘shilmaslik tamoyilini qat’iy saqlab qolgan holda ishlab chiqilishi alohida ta’kidlandi. Bu yondashuv mamlakatning mustaqil davlat sifatidagi mavqeyini mustahkamlaydi, tashqi siyosatda muvozanatni ta’minlaydi va mintaqada ishonch hamda barqarorlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, u mudofaa sohasida tashqi qaramlikka emas, balki o‘z imkoniyatlari, milliy ilmiy-texnik salohiyat va inson kapitaliga tayangan barqaror rivojlanish modelini anglatadi. Aynan shu nuqtayi nazardan, uchuvchisiz tizimlar, robotlashgan majmualar, yuqori aniqlikdagi qurol-aslaha, kiberxavfsizlik va raqamli infratuzilmaning barqarorligi ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi. **Bu ustuvorliklar O‘zbekiston mudofaa siyosatida texnologiya va intellekt hal qiluvchi omilga aylanayotganini, armiya esa nafaqat jang maydonida, balki axborot va kibermakonda ham samarali harakat qila olishi kerakligini anglatadi.**



PROAKTIV MUDOFAA SIYOSATI



ARMIIYA VA IQTISODIYOT O'RTASIDAGI STRATEGIK KO'PRIK

Proaktiv armiya konsepsiyasida inson kapitali hal qiluvchi o'rin tutadi. Chunki zamonaviy harbiy qudrat, avvalo, inson tafakkuri, bilimi va mas'uliyati bilan o'lchanadi. **“Askar – faqat jangchi emas, kelajak mutaxassisi”** degan tamoyil aynan shu strategik qarashning amaliy ifodasidir. Bu yondashuv armiyani yopiq tizim emas, balki jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan ijtimoiy institut sifatida ko'radi. Shu bois yig'ilishda muddatli harbiy xizmatga faqat harbiy tayyorgarlik bosqichi sifatida emas, balki yoshlarni mustaqil hayotga, mehnat bozoriga va faol fuqarolik pozitsiyasiga tayyorlaydigan hayotiy maktab sifatida yondashish vazifasi



qo'yildi. Prezident ta'бири bilan aytganda, **“muddatli harbiy xizmatni o'tash – yoshlar uchun muvaffaqiyat yo'li”**ga aylanishi lozim.

Ana shu g'oyaning mantiqiy davomi sifatida harbiy qismlar ixtisosligidan kelib chiqqan holda 3-6 oylik kasbga tayyorlash dasturlarini joriy etish, malaka imtihonlari va sertifikatlar berish tizimini shakllantirish rejalashtirildi. Bu nafaqat xizmat davrida askarning qobiliyatini rivojlantiradi, balki uni xizmatdan keyin ham iqtidorli kadr sifatida jamiyatga qaytarishni ko'zlaydi. Ayniqsa, har yili 5 ming nafar askarni raqamli yo'nalishlarda tayyorlash tashabbusi armiya bilan iqtisodiyot o'rtasida strategik ko'priq vazifasini bajaradi. Bu yondashuv milliy xavfsizlikni faqat qurol-aslaha bilan emas, balki bilim, intellekt va texnologiya bilan ta'minlash mumkinligini amalda isbotlaydi.

XALQ VA ARMIYANING MA'NAVYI BIRLIGI

Inson kapitaliga bunday yondashuv Prezidentning bayram tabrigida ham chuqur ma'naviy mazmun bilan davom etdi. Vatani himoyasi yo'lida halok bo'lgan qahramonlar xotirasiga bildirilgan yuksak ehtirom, ulami tarbiyalagan ota-onalar va oilalariga izhor etilgan minnatdorlik armiya bilan xalq o'rtasidagi ma'naviy birlikni yanada mustahkamladi. Bu birlik **“Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!”** degan umummilliy g'oyada o'z ifodasini topmoqda. Chunki xalq ishonchiga tayangan armiyagina haqiqiy kuchga aylanadi. Dunyoda kechayotgan harbiy-siyosiy vaziyat, ayrim davlatlarda yuz bergan voqealar bu g'oyaning naqadar dolzarbligini amalda namoyon etdi.

Ma'naviy birlik ijtimoiy adolat va g'amxo'rlik bilan mustahkamlanmasa, u barqaror bo'la olmaydi. Shu nuqtayi nazardan, yig'ilishda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha aniq va manzilli choralar e'lon qilindi. Ofitserlar uchun ko'p

yillik xizmat ustamasining 100 foizga oshirilishi, kontrakt bo'yicha xizmat qilayotgan oddiy askar va serjantlar oyligining ko'paytirilishi, harbiy bo'lmagan xodimlar maoshining bosqichma-bosqich oshirilib borilishi hamda uzoq yil xizmat qilgan harbiylar uchun pensiya hisoblash bazasining kengaytirilishi **armiyani faqat “qudrat timsoli” emas, balki harbiyning oilasi, kelajagi va sha'ni qadrlanadigan ijtimoiy institut sifatida shakllantirishga qaratilgan.**

INTELLEKTUAL-MA'NAVYI TAYANCH

Harbiy ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan modernizatsiya qilish proaktiv mudofaa siyosatining eng muhim va hal qiluvchi yo'nalishi sifatida belgilanmoqda. Chunki zamonaviy urush va xavfsizlikni saqlash muhitida texnologiyaning o'zi yetarli emas, uni to'g'ri anglaydigan, boshqara oladigan, strategik fikrlaydigan inson bo'lmasa, eng ilg'or qurol ham kutilgan natijani bermaydi. Shu ma'noda **yangicha harbiy ta'lim tizimi tahdidni oldindan ko'ra oladigan, qaror qabul qilishda tashabbuskor, vaziyatni kompleks baholaydigan yangi avlod harbiy kadrlarini shakllantirishga xizmat qilishi kerak.** Bu esa ta'lim mazmuni, uslubi va maqsadini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Proaktiv mudofaa siyosati aynan shu yerda o'zining chuqur falsafiy va amaliy mazmunini namoyon qiladi. U faqat jangga emas, balki tinchlikni saqlashga tayyorlikdir, u faqat tahdidga javob berish emas, balki tahdid paydo bo'lishidan oldin uni bartaraf etishga qaratilgan davlat tafakkuridir. Bunday yondashuvda armiya davlat barqarorligining intellektual va ma'naviy tayanchiga aylanadi. Inson kapitali, harbiy ta'lim, ijtimoiy himoya, ma'naviy tarbiya va texnologik ustunlik bir-birini to'ldiruvchi yagona tizim sifatida qaraladi.

TINCHLIKNI SAQLASH FALSAFASI

Shu nuqtayi nazardan, muddatli harbiy xizmatni yoshlar uchun “hayot maktabi”ga aylantirish, raqamli va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini mustahkamlash ham tasodifiy qarorlar emas. Bu choralar proaktiv mudofaa siyosatining insonga qaratilgan strategik yo'nalishini ifoda etadi. Proaktiv mudofaa siyosati, ayni paytda O'zbekistonning tashqi siyosatdagi muvozanatli yo'lini ham mustahkamlaydi. Hech qaysi harbiy blokka qo'shilmasslik tamoyili, mintaqaviy barqarorlikka intilish va ko'p tomonlama diplomatiya bilan uyg'un holda bu siyosat mamlakatning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini saqlab qolishga xizmat qiladi. **Demak, proaktiv yondashuv nafaqat harbiy sohada, balki davlatchilik tafakkurida ham yangi sifat bosqichini anglatadi.**

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, proaktiv mudofaa siyosati bu tinchlikni saqlashga qaratilgan milliy strategiyadir. U kuchga emas, aqlga, qo'rquvga emas, oldindan tayyorgarlikka, tasodifga emas, reja va tizimga tayanadi. Xalq va armiya – bir tan-u bir jon bo'lib harakat qilishni boshlagan sharoitda Yangi O'zbekistonning tinchligi, sha'ni va istiqbolini ishonchli qo'llarda bo'ladi.

Olimjon O'SAROV,
mudofaa vazirining
vatanparvarlik targ'iboti, ma'naviy-
ma'rifiy ishlar va yoshlar masalalari
bo'yicha maslahatchisi



Batalyon taktik o'quvi

JANGDA MAYDON

Mashhur sarkarda Jaloliddin Manguberding Parvona, Qandahor, Garna, sohibqiron Amir Temurning Kondurcha, Terek daryolari bo'yidagi, Zahiriddin Muhammad Boburning Panipat, Kxanva janglarida dushmanga nisbatan kamsonli qo'shin bilan qozongan g'alabasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, tezkor harakat, qo'qqisdan uyushtirilgan hujum, oqilona qo'llanilgan taktika va jangchilarning jasorati muhim ahamiyat kasb etgani diqqatga sazovor.

Buyuk sarkardalarning faoliyatida ko'plab kuzatilgan bunday jihatlar asrlar o'tishi bilan o'z qimmatini yo'qotmay kelyapti. Zamon talabidan kelib chiqqan holda zamonaviy qurollarning taktik uslublari bilan boyitilib borilmoqda. Bugungi kunda bunday taktik uslublardan biri – dronlar jangi deb ataladi va jang maydonlarida keng miqyosda qo'llanilayotganiga guvoh bo'lish mumkin.

Sharqiy harbiy okrug "Farg'ona" dala-o'quv maydonida tashkillashtirilgan batalyon taktik o'quvi misolida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida jangovar shaylikning qay darajada ekani yana bir marta sinovdan o'tkazildi. O'quv yili rejasiga asosan jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarida bo'linmalar turli xil jang olib borish usullaridan foydalanishdi. Unda komandirlarning boshqaruvchanlik, hududga moslashish, tezkor qaror qabul qilish kabi qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda dala-o'quv maydonida real sharoitga moslashtirilgan jang harakatlari olib borildi.

Manzilga yetib borish jarayonida qo'qqisdan uyushtirilgan hujumlarni bartaraf etish amaliyoti sinovdan o'tkazishdi. Bu harakatlar davomida aloqachilar, kimyoviy hujumdan himoyalash hamda razvedka bo'linmalari komandirlarining tezkor qarorlari natijasida qo'yilgan topshiriqlar a'lo darajada bajarildi. Shaxsiy tarkib harbiy texnikalar kolonnasi bilan harakatlanishda tezkorlik, aniqlik va hamjihatlik me'yorlariga amal qilishdan tashqari, belgilangan hududda niqoblanish va davlat chegarasini buzib kirgan shartli dushmanga qarshi ikki bosqichli zarba berish bo'yicha topshiriqlar oldi.

– Belgilangan hududda har bir vzvod va bo'linma komandirlari xizmat turidan kelib chiqqan holda joylashtirilishi juda muhim, – deydi kapitan Abdulla Ortiqov. – Shundan kelib chiqqan holda ko'chma qo'mondonlik punkti, frontorti ta'minoti, aloqachilar, kimyoviy hujumdan himoyalash, axloqiy-ruhiy ta'minot, havo hujumidan mudofaa, razvedka qidiruv guruhi, texnik va tibbiy yordam ko'rsatish xizmati, xullas barcha bo'linmalar jang maydonida muhandislik tamoyillari asosida niqoblanib, o'zaro aloqa yo'lga qo'yildi. Vzvod va bo'linmalarining harakatlanish nuqtalari belgilandi. Joylashuv hamda harakatlanish chiziqlari bo'yicha mutaxassislarning ko'rsatmalari olindi. Shaxsiy tarkibning har bir a'zosiga ana shu ko'rsatmalar asosida tegishli topshiriqlar yuklatildi. Qisqa qilib aytganda, shaxsiy tarkib ishtirokidagi mashg'ulotlar nazariya va amaliyot uyg'unligida o'tkazilib, ularda asosiy e'tibor harbiy xizmatchilarning bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlash, yangi va zamonaviy taktikalarni o'rganish, mavjudlarini takomillashtirishga qaratildi. Bo'linmalar to'siqlar yo'lagidan o'tish, o'qotar qurollarda amaliy otish, uchuvchisiz uchish apparatlarini boshqarish va ulardan himoyalash bo'yicha mashg'ulotlarda ishtirok etishdi.

– Jangchi jangda maydon tanlamaydi, degan ibora mana shunday mashg'ulotlar davomida haqiqiy ma'noda o'z isbotini topadi, – deydi I darajali serjant Bekmurod Burhonov. – Harbiy xizmatchilar qayerda bo'lmasin, hududga, muhitga va har qanday ob-havo sharoitiga moslashib keta olishlarini o'z harakatlari orqali isbotlashi shart. Amalga oshirilgan harakatlar davomida tezkorlik, aniqlik, hamjihatlik sinovidan tashqari, xavfsizlik qoidalariga ham qat'iy rioya qilinsagina ko'zlangan maqsadga erishiladi. Bularning bari mukammallashtirishda dushmanga nisbatan kamsonli qo'shin bilan jangdagi g'alaba ta'minlanadi. Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur faoliyatidagi shunday janglarni eslasak, bunga yana bir marta amin bo'lamiz. Misol uchun, Amir Temur son jihatidan



Kapitan Drifon MAMAJONOV

TANLANMAYDI



ancha ko'p bo'lgan To'xtamishxon qo'shinini ikki marta mag'lubiyatga uchratgan. Boburning 15 minglik qo'shini esa Panipat jangida ilk marta to'plar va zambaraklardan foydalanishi natijasida dushmanning 50 minglik armiyasini tor-mor etgan. Aytmoqchimanki, bugungi zamonaviy urushlarda ham bunday holatlar ko'plab kuzatilmoqda va unda dronlar jangiga ehtiyoj sezilyapti. Shuning uchun har safar batalyon taktik mashg'ulotida dronlar bilan yangi yangi usullardan foydalanish amaliyotini shaxsiy tarkib bilan yanada mukammallashtirib bormoqdamiz.

Mashg'ulotda qatnashgan harbiy xizmatchilar bir vaqtning o'zida tog'li, dala, shahar va cho'l sharoitidagi aholi yashash hududlarida shartli dushmanni yo'q qilish topshiriqlarini bajardi. Uchuvchisiz uchish apparatida olingan razvedka ma'lumotlariga ko'ra, shartli dushman joylashgan hududga tanklardan

va minomyot batareyalaridan zarbalar berildi. Merganlar va jangovar mashinalar ko'magidagi tozalash guruhlarini hujum qilingan hududda o'zlariga tegishli ishlarni oxiriga yetkazishdi.

Mashg'ulotlarni kuzatish jarayonida kapitanlar Abror Ro'zimurodov, Abdurashid Qurbonov, katta leytenant Humoyun Ne'matjonov, leytenant Samarbek Xudoyberganov kabi yosh ofitserlarning boshqaruvchanlik qobiliyati, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar, oddiy askarlar Bunyod Narzullayev, Diyor Jumayev, kichik serjant Javohir Kenjayev, III darajali serjant Bahodir Abduqodirov, II darajali serjant Abdulatif Tumanov kabi tajribali posbonlarning hamkorlikdagi harakatlarining uyg'unlashuviga guvoh bo'ldik.

Jarayonlar davomida harakatlar bo'yicha taklif va mulohazalar bildirildi, muhokama qilindi. Mashg'ulot o'quv-uslubiy jihatdan bir necha yangicha harakatlarni o'z ichiga qamrab olgani bilan ajralib turdi. Qish faslining o'zgaruvchan ob-havo sharoitiga qaramay, harbiy xizmatchilar belgilangan nishonlarni yo'q qilishda o'z mahoratlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Vazifalarni bajarishida nishonga yo'naltiruvchi mutaxassislar hamda razvedka qidiruv guruhining aniq va tezkor yetkazgan ma'lumotlariga tayanildi. Komandirlar tomonidan qo'yilgan har bir topshiriq professional tarzda bajarildi.

"Farg'ona" dala-o'quv maydonida tashkil etilgan ushbu mashg'ulotlar jarayonida harbiy xizmatchilar zamonaviy jangovar harakatlarni olib borish uslublarini chuqur o'zlashtirib, qurol-aslaha va texnik vositalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini, jamoada o'zaro hamjihatlik, tezkor qaror qabul qilish va har qanday sharoitda vazifani aniq bajarish qobiliyatini mustahkamladi. Harbiy xizmatchilar jangovar shaylikni doimiy yuqori darajada saqlashga alohida e'tibor qaratib, amaliy mashg'ulotlar orqali buni amalda yana bir bor isbotladi.

Asror RO'ZIBOYEV,
"Vatanparvar"



MA'NAVIY YETUK ASKAR — KUCHLI ARMIYA ASOSI



Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir davrda jamiyat taraqqiyoti insonning intellektual salohiyati, bilim darajasi va ma'naviy kamoloti bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.

Kitob – inson tafakkurini yuksaltiruvchi, dunyoqarashini kengaytiruvchi va hayotga bo'lgan munosabatni shakllantiruvchi beqiyos ma'naviy boylik. Mutolaa jarayonida inson nafaqat bilim oladi, balki sabr, tahliliy fikrlash, mas'uliyat va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham egallaydi.

Ayniqsa, harbiy xizmatchilar uchun kitobxonlik alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki Vatan himoyasi yo'lida xizmat qilayotgan har bir askar va ofitser nafaqat jismonan chiniqqan, balki ruhan yetuk, siyosiy va ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishi zarur. **Kitob harbiy xizmatchining ichki dunyosini boyitadi, unda vatanparvarlik tuyg'ularini yanada mustahkamlaydi, tarixiy xotira va milliy g'ururni shakllantiradi.** Shu bilan birga, badiiy va ilmiy adabiyotlar orqali harbiy xizmatchilar turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, mas'uliyatni chuqur his etish va xizmat burchiga sadoqat bilan yondashish kabi muhim fazilatlarini o'zida mujassam etadi.

Mamlakatimizda kitobxonlikni targ'ib qilish, ayniqsa harbiy xizmatchilar o'rtasida mutolaa madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, okrug va harbiy qismlarda zamonaviy kutubxonalar tashkil qilinib, ta'mirga muhtojlari yangidan ta'mirlanib, harbiy xizmatchilarning mutolaa bilan shug'ullanishlariga sharoit yaratilyapti. Ushbu kutubxonalardagi kitoblar soni ham ko'paytirilib, yangi adabiyotlar bilan boyitilmoqda. Bu bilan harbiy xizmatchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning ma'naviy saviyasini oshirish hamda dunyoqarashini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. **Kitob mutolaasi orqali ularning bilim darajasi, intizom, vatanparvarlik tuyg'ulari mustahkamlanib, xizmatga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmalari shakllanmoqda.**

Shuningdek, kutubxonalar faoliyatiga raqamli texnologiyalar joriy etilib, elektron kitoblar, audiokitoblar va onlayn manbalardan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa harbiy xizmatchilarning zamonaviy bilim va axborotlarga tezkor yetib borishini ta'minlab, intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Qolaversa, harbiy qismlarda turli kitobxonlik tanlovlari, adabiy kechalar, ma'rifiy uchrashuvlar hamda mashhur yozuvchi va olimlar bilan muloqotlar tashkil etilmoqda. Bunday tadbirlar harbiy xizmatchilarning kitobga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirib, mutolaa

madaniyatini shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yilning 13-yanvar kuni bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ham harbiy xizmatchilar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini yanada rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur yig'ilishda **mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini oshirish bilan birga shaxsiy tarkibning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi.**

Yig'ilish davomida Prezidentimiz zamonaviy harbiy xizmat faqat jismoniy tayyorgarlik va harbiy mahorat bilangina emas, balki chuqur bilim, keng dunyoqarash va mustahkam ma'naviy immunitet bilan ham chambarchas bog'liq ekanini alohida ta'kidlab o'tdi. Ayniqsa, harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni mustaqil fikrlaydigan, tahlil qila oladigan va qarorlarni mustaqil qabul qiladigan shaxs sifatida kamol toptirishda kitobxonlik madaniyati beqiyos ahamiyatga ega ekanini qayd etildi.

Shu ma'noda mutolaa qilish harbiy xizmatchilarning bilim doirasini kengaytirish, tarixiy tajriba va ilg'or g'oyalarni o'zlashtirish, vatanparvarlik tuyg'ularini yanada mustahkamlashda muhim vosita ekanini ko'rsatib o'tildi. Kitob inson tafakkurini charxlab, ma'naviy barkamollikni ta'minlashi, shaxsda mas'uliyat, sabr-bardosh va qat'iyat kabi muhim fazilatlarini shakllantirishi bilan harbiy xizmat samaradorligini oshirishga xizmat qilishi qayd etildi. Ana shu omillarni inobatga olgan holda kitobxonlik madaniyatini harbiy xizmatchilar hayotining ajralmas qismiga aylantirish dolzarb vazifa ekanini alohida ta'kidlandi.

Bundan tashqari, joriy yilda mamlakatimizdagi barcha harbiy qism va muassasalarning jami 1 million nusxadan ortiq badiiy va ma'rifiy adabiyot bilan ta'minlanishi ma'lum qilindi. Ushbu kitoblar milliy va jahon adabiyotining sara namunalari, tarixiy, falsafiy hamda ma'naviy-ma'rifiy asarlarni qamrab olib, harbiy xizmatchilarning bilim darajasini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish va tafakkurini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur adabiyotlar harbiy xizmatchilarning bo'sh vaqtini mazmunli

tashkil etish, ularni kitob mutolaasiga jalb etish orqali xizmat jarayonidagi ruhiy zo'riqlashlarni kamaytirish, ma'naviy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, shaxsiy tarkib orasida sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishga mustahkam zamin yaratadi.

Umuman olganda, amalga oshirilayotgan ushbu tashabbuslar Qurolli Kuchlar safida kitobxonlik madaniyatini tizimli ravishda rivojlantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish hamda harbiy xizmatni jismoniy tayyorgarlik bilan birga ma'naviy kamol topish maktabi sifatida namoyon etishga qaratilgan. Kitobga oshno bo'lgan harbiy xizmatchi o'z xizmat vazifalarini chuqur anglaydigan, mustaqil fikrlay oladigan, yuksak mas'uliyat va vatanparvarlik ruhiga ega shaxs sifatida shakllanadi. Shu ma'noda kitobxonlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bunday keng ko'lamli ishlar milliy armiyamizning ma'naviy salohiyatini yanada mustahkamlab, uning jamiyatdagi nufuzi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, yig'ilishda Qurolli Kuchlar tizimidagi harbiy sohaga yo'naltirilgan **maktab-litsey o'quvchilari, muddatli harbiy xizmatchilar, kursantlar, serjant va ofitserlar o'rtasida Oliy Bosh Qo'mondon sovrini uchun kitobxonlik tanlovi tashkil etilishi e'lon qilindi.** Ushbu tanlov okrug, qo'mondonlik, vazirlik va Oliy Bosh Qo'mondon bosqichlarida o'tkazilib, unda g'olib va sovrindor bo'lgan askarlar uchun muhim rag'batlantirish choralari belgilandi.

“**Xususan, tanlovlarda yuqori natija ko'rsatgan muddatli harbiy xizmatchilarning xizmat muddati bir oyga qisqartirib berilishi qayd etildi.**”

Bu esa harbiy xizmatchilar o'rtasida kitobga bo'lgan qiziqishni yanada oshirish, ma'naviy yuksalishni rag'batlantirish hamda kitobxonlikni xizmatning ajralmas qismiga aylantirishga xizmat qiladi.

Mazkur tashabbus xalqimiz tarixida ilm-ma'rifat va harbiy san'at azaldan uyg'un holda rivojlanib kelgani bilan chambarchas bog'liqdir. Tarixdan ma'lumki, qadimgi Turon zaminida harbiy sarkardalar faqat jang maydonida jasurligi bilan emas, balki bilimdonligi, tafakkuri va ma'naviy salohiyati bilan ham ajralib turgan. Masalan, Spitamen

yunon-makedon qo'shinlariga qarshi kurashda nafaqat jismoniy qudrat, balki mukammal taktika va harbiy strategiyaga tayana olgan sarkarda sifatida tarixda qolgan.

O'rta asrlar davriga kelib, Amir Temur davlat boshqaruvi va harbiy tizimni ilmiy asosda tashkil etgan buyuk sarkarda sifatida tanilgan. “Temur tuzuklari” asarida harbiy intizom, qo'shin boshqaruvi, qo'mondon ma'naviyati va bilimli rahbar masalalariga alohida o'rin berilgani bejiz emas. **Temuriylar davrida harbiy zotlar tarix, falsafa, geografiya va davlatchilikka oid asarlarni mutolaa qilishi muhim talab sifatida qaralgan. Bu esa harbiy xizmatda kitobxonlikning tizimli ravishda shakllanganini ko'rsatadi.**

Shuningdek, Mirzo Ulug'bek faqatgina buyuk olim emas, balki davlat va harbiy boshqaruvda ilm-fanga tayanish zarurligini amalda isbotlagan arboblardan biri bo'lgan. Uning ilmga asoslangan boshqaruvi davlat barqarorligi va harbiy salohiyatni mustahkamlashda muhim omil bo'lgan. **Jaloliddin Manguberdi esa Vatan himoyasida faqat jasorat bilan emas, balki tarixiy tajriba va harbiy aqlga tayanish orqali kurash olib borgan sarkarda sifatida yodga olinadi.**

Yaqin tariximizda ham jadid ma'rifatparvarlari harbiy va fuqarolik tarbiyasida kitobning o'rni beqiyos ekanini ta'kidlashgan. Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot masalasi”, deb bejiz aytmagan. Uning asarlarida bilimli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash davlat va jamiyat xavfsizligining muhim omili sifatida talqin qilingan. Bu g'oyalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Bugungi **Yangi O'zbekiston sharoitida ushbu tarixiy merosga tayangan holda milliy armiyamizda harbiy tayyorgarlik, zamonaviy qurol-yarog' va ilg'or texnologiyalar bilan bir qatorda, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratilmoqda.** Kitob mutolaasi orqali harbiy xizmatchilar ajdodlarimiz qoldirgan davlatchilik tajribasi, qahramonlik an'analari va milliy g'urur manbalarini chuqur anglaydi. Bu esa ularning Vatan oldidagi mas'uliyatini oshirib, har qanday murakkab sharoitda qat'iy qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Shu ma'noda **Oliy Bosh Qo'mondon sovrini uchun o'tkazilayotgan kitobxonlik tanlovi oddiy musobaqa emas, balki tarixiy xotirani tiklash, milliy o'zlikni anglash va harbiy xizmatni ma'naviy jihatdan boyitishga qaratilgan keng qamrovli ma'rifiy harakat sifatida ahamiyat kasb etadi.**

Bu kabi tashabbuslar kelgusida jismonan va ma'nan barkamol, chuqur bilim va mustaqil tafakkur sohibi bo'lgan, ajdodlar merosiga tayangan holda Vatan tinchligi va xavfsizligini ishonch bilan ta'minlay oladigan zamonaviy harbiy kadrlarni tarbiyalashda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”**



Surat tahririyat arxividan olindi

ARMIYA VA XALQNI BIRLASHTIRUVCHI KUCH

Bebaho hayotiy va kasbiy tajribaga ega katta avlod vakillarining bilim va ko'nikmalari, umr saboqlari barchamiz, jumladan harbiy xizmatchilar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada milliy armiyamizda samarali tizim allaqachon yo'lga qo'yilgan. Ya'ni Mudofaa vazirligi huzurida Jamoatchilik kengashi faoliyat yuritib kelmoqda.

Aytish kerakki, kengash a'zolarining asosiy maqsadlaridan biri yoshlar qalbida harbiy kasbga ishtiyoq va qiziqishlarini oshirish, vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash, o'g'il-qizlarni yurtga daxldorlik ruhida tarbiyalashdan iborat. Qisqasi, ular xalq va armiya o'rtasidagi muhim ko'priki.

Jamoatchilik kengashining bir guruhi a'zolari Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Quruqlikdagi qo'shinlar institutida bo'lganida ham ana shu fikrlar o'z isbotini amalda topdi.

Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari bilan bir qatorda vazirlik va idoralar rahbar xodimlari, ilm-fan va madaniyat sohasi vakillari ishtirok etdi. Jumladan, Kinematografiya agentligi rahbari Shuhrat Rizayev, kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri o'rinbosari R. Turdiboyeva, sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari E. Basitxanova, maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari F. Boqiyev, filologiya fanlari doktori, professor X. Dadaboyev, shuningdek O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi



olib borilayotgan ta'lim jarayonlari bilan yaqindan tanishdi.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-apreldagi farmoni bilan tasdiqlangan Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi nizomiga muvofiq, harbiy sohada olib borilayotgan tizimli islohotlar haqida keng jamoatchilikni xabardor qilib borish kengashning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan mazkur tashrif ochiqlik va shaffoflik tamoyillarining amaldagi ko'rinishi sifatida ham e'tirof etildi.

Shuningdek, mehmonlar institutning kecha va bugunidan sassiz so'zlovchi tarix muzeyi,



vakili Ma'mura Zohidova hamda kengashning boshqa a'zolari bu yerda komandir va ustozlardan ta'lim-tarbiya olib kelayotgan kursantlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Harbiy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan yangiliklar, yaratilgan qulayliklar hamda zamonaviy yondashuvlar asosida

zamonaviy o'quv qurollar bilan to'liq jihozlangan auditoriyalar, sport zali, o'zbek va jahon adiblarining eng sara asarlarini o'zida jamlagan kutubxona faoliyati bilan ham tanishtirildi.

Bugun kursantlar nazariya va amaliyotni uzviy tarzda olib bormoqda. Ular olgan bilimlarini institut dargohidan chiqmagan holda



amaliyotda qo'llab, ko'nikmalarini mustahkamlayapti. Xususan, parashyut-desantchilarni tayyorlash mashg'ulotlari shular jumlasidan. Yurt o'g'lonlari yerda bajariladigan mashg'ulot sirlarini chuqur tahlil etgan holda o'rganib, ko'kdagi harakatlarini muvofiqlashtirib kelmoqda. Chunki yerdagi harakat bulutlar orasidagi muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi.

Darvoqe, mehmonlarda sun'iy intellekt va zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida jihozlangan "Mafkuraviy poligon" hamda "Raqamli poligon" o'quv majmualari ham katta qiziqish uyg'otdi. Ushbu poligonlar orqali kursantlarda nafaqat jangovar tayyorgarlik, balki mafkuraviy barqarorlik, mustaqil fikrlash va zamonaviy axborot tahdidlariga qarshi tura olish ko'nikmalari shakllantirilayotgani so'z olganlar tomonida alohida ta'kidlandi.

Shu kuni Jamoatchilik kengashi a'zolari uchun kursantlar tomonidan "Raqamli poligon" hududida mashg'ulotlar namoyish etildi. O'g'lonlar berilgan vazifalarni real jang vaziyatlariga yaqinlashtirilgan holda bajardi. Bu yerda ado etilayotgan topshiriqlar zamonaviy yondashuvlar, amaliyotda o'zini oqlagan usullar va uslublarni aks ettirdi. Har bir harakat, har bir taktik reja kursantlarning egallagan bilimlaridan darak berib bordi. Qolaversa, ushbu poligonda yaratilgan muhit, sun'iy tashkil etilgan jang maydonidagi har bir detal bo'lajak ofitserlar uchun o'zini ko'rsatish, yetakchilik qobiliyatlarini yaxshi shakllantirish imkonini berayotgani ishtirokchilar tomonidan e'tirof etildi.

So'ngso'z sifatida aytish mumkinki, ushbu harbiy oliygohda yaratilgan zamonaviy ta'lim muhiti va innovatsion yondashuvlar professional, bilimli va fidoyi harbiy kadrlarni tayyorlashga xizmat qilishda o'z samarasini ko'rsatmoqda. Bu kabi tadbirlar esa xalq va armiya o'rtasidagi mustahkam hamkorlikni yanada rivojlantirishga munosib hissa qo'shadi.

Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"



Muallif suratga olgan



HARBIY XIZMATGA QABUL TARTIBI:

MUTAXASSIS BILAN SUHBAT

Qurolli Kuchlarimizda so'nggi yillarda olib borilgan tizimli islohotlar natijasida armiya va xalq birdamligi ta'minlandi. Qo'shinlarimiz mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlashdan tashqari, xalqimizga har tomonlama ko'mak beradigan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning jamiyatda o'z o'rinlarini egallashlarida muhim maktab vazifasini o'tayotgani ham ayni haqiqat. Aytish kerakki, yoshlar uchun milliy armiyamiz chin ma'noda matonat va jasorat maydoniga aylanib bormoqda.

Xo'sh, sizda Vatan oldidagi yig'itlik burchini ado etish, xizmat qilishda ishtiyoq bor. Biroq ayni yo'nalishda mavjud qonunchilik bilan qay darajada xabardorsiz? Ushbu maqolada yurt farzandlari sharaflari kasbni tanlash uchun nimalarga ahamiyat qaratish kerakligi xususida so'z boradi. Demak, bugungi suhbatdoshimiz Mudofaa vazirligi harbiy-kasbiy saralash boshqarmasi mas'ul ofitseri Olimjon Jo'rayev.

– **Harbiy-kasbiy saralash nima?**

– Harbiy-kasbiy saralash – fuqarolarni (*nomzodlarni*) kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga qo'yilgan talablarga mos kelishini aniqlashga qaratilgan tadbirlar kompleksi hisoblanadi.

– **Kimlar Mudofaa vazirligi qo'shinlariga kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirish uchun saralash tadbirlarida ishtirok etishi mumkin?**

– Saralashda O'zbekiston Respublikasining umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional yoki oliy ma'lumotga ega bo'lgan fuqarolari ishtirok etishi mumkin. Bunda erkak jinsidagi nomzod O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tagan (*o'tayotgan*) yoki safarbarlik chaqiruvi rezervida harbiy xizmatni o'tagan yoxud oliy ta'lim tashkilotlari harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalarida o'qishni tugatgan bo'lishi, shuningdek harbiy ro'yxatda turgan bo'lishi kerak.

– **Kimlar Mudofaa vazirligi qo'shinlariga kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kira olmaydi?**

– O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi bo'lmaganda, fuqaroga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilgan, tergovga qadar tekshiruv o'tkazilayotgan, dastlabki tergov yoki surishtiruv olib borilayotgan bo'lsa. Shuningdek, agar fuqaro muqaddam

kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tagan va harbiy xizmatchining nomiga dog' tushiruvchi xatti-harakatni sodir etgani yoki xizmat vazifasiga noloyiq bo'lib qolgani sababli bo'shatilgan bo'lsa, u bilan kontrakt tuzilmaydi. Bundan tashqari, harbiy xizmatni o'tash bilan bog'liq bo'lgan cheklavlarga rioya etishni rad etganda yoki belgilangan maxsus talablarga javob bermasa, sog'lig'ining holatiga ko'ra, harbiy xizmatga yaroqsiz deb topilsa. Qisqasi, nomzodni saralash davomida shu kabi omillar, albatta inobatga olinadi.



– **Mudofaa vazirligi qo'shinlariga kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirishda yosh chegaralari cheklanganmi?**

– Oddiy askar va serjantlar tarkibi lavozimlariga – o'ttiz yoshgacha bo'lgan harbiy xizmatga majburlar va ayollar hamda muddatli harbiy xizmatni o'tagan harbiy xizmatchilar taklif etiladi. Oddiy askar, serjant va ofitserlar tarkibi lavozimlariga esa muddatli harbiy xizmatni yoki safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tagan va oliy ma'lumotga ega o'ttiz yoshgacha bo'lgan harbiy xizmatga majburlar. Oliy harbiy



ta'lim muassasalarining kursantlari lavozimlariga esa o'n yetti yoshdan yigirma uch yoshgacha bo'lgan yoshlar hujjat topshirishi mumkin. Qisqasi, bu jarayonlarda qabul qilingan qonuniy tartiblar mavjud. Ana shu tartiblar asosida yurt himoyachisi bo'lishni maqsad qilgan fuqarolarimiz saralanadi.

– **Mudofaa vazirligi qo'shinlariga kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirishda bo'y balandligi qancha etib belgilangan?**

– O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq, Mudofaa vazirligi qo'shinlariga kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga qabul qilishda nomzod bo'yining balandligi 165 sm va undan yuqori bo'lishi talab etiladi.

– **Mudofaa vazirligi qo'shinlariga kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga saralash bosqichlari qanday tartibda amalga oshiriladi?**

– Nomzodlarni kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga saralash tadbirlari quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

a) dastlabki o'rganish (*hujjatlarni yig'ish va o'rganish, suhbat*);

b) jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash;

v) psixologik o'rganish (*nomzodlarning intellektual rivojlanganlik darajasi va psixoemotsional barqarorligini baholash*);

g) tibbiy ko'rik;

d) muvofiqlashtirishdan o'tkazish yoki davlat sirlaridan foydalanishga doir ruxsatnoma rasmiylashtirish.

– **Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirish uchun ariza berish tartibi xususida ham ma'lumot berib o'tsangiz?**

– Fuqarolar tomonidan Mudofaa vazirligi qo'shinlariga kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirish uchun ariza berish yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining my.gov.uz platformasi orqali onlayn ravishda amalga oshiriladi.

– **Shunda nomzodlarning arizalari qancha muddatda ko'rib chiqiladi?**

– Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining my.gov.uz platformasi orqali kelib tushgan arizalar mutaxassislar tomonidan 15 ish kunida o'rganib chiqiladi. Shundan so'ng fuqaroga saralashning dastlabki o'rganish bosqichiga qabul qilingani yoki qabul qilinmagani haqida uning shaxsiy kabinetiga xabar yuboriladi.

– **Mudofaa vazirligi qo'shinlaridagi bo'sh (vakant) lavozimlarga navbatdagi qabul ochilganini qanday bilish mumkin?**

– Bilasiz, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Albatta, bu so'nggi yangiliklardan tez va oson xabar topish imkonini ham bermoqda. Shu ma'noda ayni savolga javob beradigan bo'lsam, Mudofaa vazirligi qo'shinlarida mavjud bo'sh (*vakant*) lavozimlarga arizalar qabul qilish boshlangani to'g'risida vazirlikning ijtimoiy tarmoqlarida xabar berib boriladi. Bu esa, o'z navbatida, ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini oladi.

**“Vatanparvar” muxbiri
kapitan Shohrux SAIDOV
suhbatlashdi.**



Suratlar tahririyat arxividan olindi

KURSANTLIK SARI QADAM



2025-yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Qurolli Kuchlar akademiyasi negizida Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta'lim muassasalarini birlashtiradigan Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi. 2026-yil 1-fevral sanasidan mazkur universitet va uning tarkibidagi 4 ta institutga o'qishga kirish istagini bildirgan nomzodlardan arizalar qabul qilish boshlandi.

Nomzodlarning arizalari (*bildirgilari*) amaldagi tartibga muvofiq, tuman (*shahar*) mudofaa ishlari bo'limlari tomonidan qabul qilinmoqda. Shuningdek, nomzodlarga qulaylik yaratish maqsadida Mudofaa vazirligi tomonidan maxsus elektron platforma orqali arizalarni onlayn qabul qilish ko'zda tutilgan. Platforma ishga tushirilgani haqida qo'shimcha ravishda ma'lumot berilishi rejalashtirilgan.

Shunga qaramay, O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti hamda uning tarkibiga kiruvchi institutlar haqida ofitser bo'lishni rejalashtirgan yoshlarda qiziqish katta. Chunki 20 dan ortiq xorijiy davlatning sohaga oid ilg'or tajribasi o'rganilib, harbiy ta'limni isloh qilish bo'yicha yangi milliy model ishlab chiqilgani bo'lajak ofitserlar uchun yangilik bo'ldi. Shuningdek, 36 ta yo'nalish bo'yicha fuqarolik va harbiy kasblar bo'yicha ikkita diplom tizimi joriy etiladi. Xo'sh, harbiy xavfsizlik va mudofaa sohalarida yetakchi mutaxassislar yetishtirishga yo'naltirilgan ushbu oliy harbiy ta'lim muassasalarida qanday ta'lim yo'nalishlariga qabul amalga oshiriladi? Kursantlikka nomzodlar uchun yana qanday yangiliklar bor?

Mudofaa vazirligidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, 2026/2027-o'quv yili uchun ushbu universitetda qo'shinlarning taktik qo'mondonligi, xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash, Qurolli Kuchlar bo'linmalarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarni tashkil etish, frontorti ta'minoti taktik qo'mondonligi kabi ta'lim yo'nalishlariga tegishli kvotalar ajratilgan.

Yangiliklardan yana biri tor ixtisosliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashning "2+2" tartibi yo'lga qo'yilishidir. Ya'ni psixolog, aloqachi, ta'minotchi, omborchi kabi 18 ta ixtisoslik bo'yicha nomzodlar 2027/2028-o'quv yilidan boshlab, boshqa oliy ta'lim muassasalarining II bosqich talabalari orasidan saralab olinadi.

Aytish joizki, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida kompyuter vositalari bilan jihozlangan auditoriyalar, zamonaviy yotoqxona, oshxona, yopiq suv havzasi, maxsus zallardan iborat sport majmuasi, stadion, sport maydonlari va to'siqlar yo'lagi, "Skalodrom" tog'-balandlik universal majmuasi, jangovar mashinalar parki, avtomobil va zirhli texnikalarni haydash trenajyor komplekslari mashg'ulotlarni sifatli tashkil etishga xizmat qilmoqda. O'quv jarayonini ta'minlash bazasidagi "Chirchiq" dala-o'quv maydonida o'quv chegara posti, havo-desant va tog' tayyorgarligi, taktik o'quv maydoni, tir, tankdan otish, avtomobillar va jangovar texnikalarni haydash, muhandislik shaharchalari, to'siqlar yo'laklari kursantlarning amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashda asqatmoqda.

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo'shinlar institutida esa tank qo'shinlari, artilleriya, muhandislik, havo-desant qo'shinlari, qo'shin razvedkasi kesimida qo'shinlarning taktik qo'mondonligi hamda qo'shinlarning taktik qo'mondonlik muhandisligi ta'lim yo'nalishlari uchun nomzodlarni o'qishga qabul qilish rejalashtirilgan.

Harbiy xavfsizlik va

mudofaa universitetining Harbiy aviatsiya institutida uchuvchilik, muhandislik, havodagi harakatlarni boshqarish, razvedka aviatsiyasi, uchuvchisiz razvedka-zarbdor aviatsiya majmualari singari bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida kadrlar tayyorlanadi. Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti va uning Quruqlikdagi qo'shinlar hamda Harbiy aviatsiya institutlariga umumta'lim maktablari, kollej va litseylar bitiruvchilari o'qishga hujjatlarini topshirishi mumkin.

Zamonaviy sharoitlarga ega bo'lgan Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Harbiy tibbiyot instituti butunlay yangicha qiyofa kasb etgan Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali hududida barpo etilgan bo'lib, o'quv jarayoni bevosita amaliyot bilan uzviy bog'langan. Bu esa harbiy tibbiyot kadrlarini tayyorlash va qo'shinlarda tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirishda munosib hissa qo'shmoqda. Bu yerda kursantlikka nomzodlar harbiy vrach ta'lim yo'nalishida harbiy tibbiyot ishi (*davolash ishi*) hamda gigiyena-epidemiologiya harbiy vrachi ta'lim yo'nalishida harbiy tibbiyot ishi (*tibbiy profilaktika ishi*) kesimidagi kvotalar uchun bellashadi.

Yangi moddiy-texnik baza bilan butlangan Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa institutida aloqa qo'shinlari, axborot tizimlari va texnologiyalari, axborotlarni kriptografik himoyalash, havo hujumidan mudofaa radiotexnika qo'shinlari, tarmoq va axborot tizimlarining xavfsizligi kabilar kesimida

qo'shinlarning taktik qo'mondonlik muhandisligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi. Harbiy tibbiyot institutiga oliygohlarda tibbiy profilaktika yo'nalishining IV bosqichi, davolash ishi yo'nalishining V bosqichini, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa institutiga esa turdosh oliy ta'lim muassasalarining II bosqichini tugatgan talabalar o'qish uchun tegishli hujjatlarini taqdim etishi mumkin.

Joriy yilda abituriyentlarning o'qishga qabuli bo'yicha yana bir muhim yangilik O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida 13-yanvar kuni bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida qayd etildi. Unda askarlarga muddatli harbiy xizmatni o'tash davrida harbiy qismning o'zida oliygohga o'qishga kirish uchun imtihon topshirish imkoniyati yaratilishi, test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tganlar muddatli harbiy xizmat yakunlanishi bilan oliygohda o'qishni davom ettirishi ma'lum qilindi.

Yuqorida qayd etilganidek, joriy yilning 1-fevralidan yurtimizdagi barcha tuman (*shahar*) mudofaa ishlari bo'limlarida Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun abituriyentlardan hujjatlarni qabul qilish boshlangan bo'lib, jarayon 31-martga qadar davom etadi. Hayotini harbiylik kasbi bilan bog'lash niyatidagi yoshlarga esa maqsadlar ro'yobini tilaymiz.


**Katta leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"**



Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligiga

Soʻz mulkining sultoni, turkiy adabiyot osmonidagi betakror yulduz – hazrat mir Alisher Navoiy nafaqat badiiy tafakkur, balki oʻz davrining ijtimoiy, siyosiy va harbiy voqeligi ham chuqur anglab, asarlarida mahorat bilan ifoda etgan mutafakkir zot. Uning boy adabiy merosi besh asrdan ortiq vaqt mobaynida oʻz qimmatini yoʻqotmay, bugungi kun oʻquvchisi uchun ham tarixiy-maʼnaviy xazina boʻlib xizmat qilib kelmoqda.

QALAM VA QILICH: NAVOIY IJODIDA HARBIY ATAMALAR



Navoiy bobomiz yashagan XV asr – Sharq tarixida jang-jadallar, saltanatlar oʻrtasidagi kurashlar, harbiy yurishlar bilan chuqur iz qoldirgan. Ana shu murakkab tarixiy sharoitda shakllangan harbiy tizim, jangchi obrazi, qurol-yarogʻ va aslahalar nomlanishi Navoiy asarlarida ham oʻz aksini topgan. Mazkur harbiy atamalar Navoiy tilining boyligi, aniqligi va ifoda qudratini yanada yaqqol namoyon etadi.

Quyida Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan harbiy atamalar hamda ularning hozirgi zamonga xos muqobil maʼno va shakllari keltirib oʻtiladi. Ushbu izohlar ulugʻ mutafakkir merosini chuqurroq anglash, tarixiy-harbiy leksikaning taraqqiyot yoʻlini ochib berishga xizmat qilishidan umidvormiz.

Avon – davlat posboni, mirshab, jazolovchi jallod.

Avrang – taxt, oʻrda.

Adu/aduv – dushman, yov, raqib.

Aduvband – dushmani bandga soluvchi, asir oluvchi.

Alam – bayroq, tugʻ.

Alam sutuni – bayroq dastasi, gʻalaba belgisi.

Alamkash – bayroq koʻtaruvchi.

Alochuq, alochugʻ – chodir, kapa.

Amir – podshoh, hukmdor.

Amirul umaro – amirlarning amiri.

Amorat – amirlik, hokimlik, beklik.

Amoratmaob – amirlik mansabida turuvchi, amirlikni kuzatuvchi.

Amr – buyruq, hukm, farmon, farmoyish.

Arslonliq – sherlik, gʻoliblik.

Arugʻdol, argʻadol – tepacha, dara; pistirma.

Argʻada – aldamoq, hiyla, makr bilan yengmoq, frib bermoq.

Asas – tungi soqchi, kecha qorovuli, posbon.

Asir – asir, tutqun, bandi.

Askar – lashkar; jangchi; sarboz, sipohi.

Aslah – qurol-yarogʻ.

Asokir – askarlar.

Aʻodi – dushmanlar.

Agʻyor – begonalar, oʻzgalar, boshqalar; raqiblar, dushmanlar.

Ahd – qatʼiy vaʼda, soʻz berish, qasam, shart, paymon.

Ahkom – hukmlar, yoʻl-yoʻriqlar, nizomlar, qonunlar; farmonlar.

Balorak – yaltiroq oʻtkir qilich.

Band – kishan, tushov, boʻgʻov; hibsga olinish; tutqunlik.

Bandi – bogʻliq, asir; qaram, tobe.

Bargustvon – zirh; ot, filga yopiladigan oʻq oʻtmas yopinchiq.

Bashoq – yoy oʻqi uchiga oʻrnatilgan oʻtkir uchli temir, yoy oʻqining oʻtkir uchi.

Bahodir – qahramon, jasur, bahodir, qoʻrqmas, pahlavon.

Bahodirliq – qahramonlik, jasurlik, bahodirlik, qoʻrqmaslik, pahlavonlik.

Bebok – botir, qoʻrqmas, hayiqmas.

Bek-beg – bek, amaldor.

Bolchoq – qilich sopi.

Bora – qalʼa, qoʻrgʻon devori.

Boru – qalʼa devori.

Borgoh – chodir, oʻtov.

Borongʻar, burongʻor – qoʻshinning oʻng qanoti.

Bos – yengmoq, tor-mor qilmoq, gʻalaba qilmoq.

Bosil – yengilmoq, tor-mor boʻlmoq.

Boshligʻ – boshliq, boshqaruvchi.

Boshogʻligʻ – oʻtkir uchli, oʻtkir tigʻli.

Bulgʻogʻ – toʻpolon, gʻala-gʻovur, gʻavgʻo, fitna.

Bun – tag, ost.

Bungoh – joy, turarjoy, qoʻshin qarorgohi.

Burj – qalʼa devorining choʻqqisi, minora; shahar devorining burilish joylariga



quriladigan soqchilar turadigan qorovulxona.

Burron – o'tkir, keskir.

Burqa' – parda, niqob, hijob.

Bo'ktar – jangchilar kiyadigan maxsus kiyim.

Vag'o – urush, to'qnashuv.

Voya – hissa, ulush, nasiba.

Gaz – kamonning parsiz o'qi.

Gurd – pahlavon, bahodir, qo'rqmas.

Guruha – kamonga solib otiladigan yumaloq o'q, soqqa.

Go'shti – kurash.

Go'shtigir – kurashga tushuvchi pahlavon; laqab.

Davulg'a – dubulg'a, urush kiyimi, bosh kiyim.

Davulg'on – dubulg'a.

Dalir – shijoatli, jasoratli, pahlavon, dovyurak.

Dapqur/dabqur – harbiy bo'linma, kichik otryad.

Darbon – darvozabon, eshik soqchisi.

Darog'daroy – qo'ng'iroq.

Dara – qayishdan yasalgan enli qamchi.

Dastburd – olishuv, kuch-qudrat; ustunlik, zafar.

Dastur – buyruq, farmoyish, qo'llanma.

Dashna – xanjar, uchi o'tkir pichoq.

Dashtbonlig' – qo'riqchilik, nazoratchilik.

Dahana – dahana, darvoza, kirish joy, og'iz; chegara.

Didbon – qorovul, navbatchi.

Diz – qo'rg'on, qal'a.

Dilovar – botir, qahramon, pahlavon.

Dirafsh – bayroq.

Dir' – zirh, sovut.

Dom – tuzoq, to'r.

Doranda – xabarchi, elchi, chopar.

Doru – o'q-dori, porox.

Dorug'a – shahar tartibini nazorat qiluvchi mirshab, bosh mirshab.

Dubdurun – to'polon, solishish.

Dulg'a – temirdan yasalgan bosh kiyim, dubulg'a.

Durbin – uzoqni ko'ruvchi.

Ducho'ba – chodir.

Dushman – muxolif, yov.

Yoy – yoy, kamon.

Yom oti – chopar ot.

Yomxona – choparlarning ot almashtirish joyi.

Yonch – ezmoq, yanchmoq, yo'q qilmoq.

Yorliq – amr, farmon.

Yorg'u – himoya, hukm.

Yog'iy – dushman, yov.

Javlon – hamla, yurish.

Javshan – sovut, zirhga o'xshash urush kiyimi.

Bahs-u jadal – urush, janjal.

Jaysh – lashkar, qo'shin.

Jallod – o'lim hukmining ijrochisi.

Jalodat – qahramonlik, bahodirlik.

Jang – urush, jang.

Jangiy – urushqoq, zo'ravon.

Janoq – egarning qoshi.

Jar – xabar, ovoza.

Ja'ba – o'qdon, sadoq.

Jahongir – dunyoni zabt etuvchi, g'olib.

Jahondor – qudratli shoh.

Jeli – jela, sirtmoq, tavq, qul bo'ynidagi temir halqa.

Jiba – urush kiyimi, sovut.

Jidol – nizo, janjal, urush.

Josus – sir oluvchi, josus.

Jubba – jangda kiyiladigan kiyim.

Juvong'or – qo'shinning so'l qanoti.

Jur'at – jasorat, g'ayrat, himmat.

Jo'ng – kema.

Jo'sh – qaynash, g'alayon.

Zabardast – qo'li baland, iste'dodli, mohir.

Zabt – egallash, qo'lga olish.

Zavlona – kishan.

Zavraq – qayiq, kema.

Zanburiy – kichik to'p, zambarak.

Zarba – urish, zarba berish, hamla.

Zafar – baxt, iqbol, g'alaba.

Zindon – qamoqxona.

Zindoni – mahbus.

Zirih – sovut, temir ko'ylak, urush kiyimi.

Zih – paydan qilingan tor, kamonning ipi.

Zorib – uruvchi.

Zulfiqor – Hazrat Alining qilichi.

Zo'r – kuch, quvvat, pahlavon.

Igrim – suvning aylanib oqadigan joyi, girdob.

Isyon – qo'zg'olon.

Istilo – qo'lga olish, bosib olish, egallash.

Iskanja – qiynoq, azob, siqish.

Kamand – halqa, sirtmoq, tuzoq.

Kamin – pistirma, pana joy.

Kamon – kamalak, yoy.

Kamonxona – kamon otishni mashq qiladigan joy.

Katora – o'tkir qilich, xanjar.

Kejim – jang vaqtida otga kiydiriladigan maxsus yopiq.

Kema – qayiq.

Kerish – yoy ipi, kamon tori, kamonni eguvchi ip.

Kishti – kema.

Kishtibon – kemachi.

Kishvarsiton – g'olib.

Kishvarsitonliq – jahongirlik.

Kovurgo – katta nog'ora.

Kuykanak – shunqor.

Kungura, kungira – qal'a ustiga ziynat uchun ishlatiladigan panjara, dandona.

Kutvol – darg'a, qal'a boshlig'i.

Kuchluk – baquvvat, pahlavon.

Kushti – yakkama-yakka olishuv, kurash.

Kushtigir – kurashchi polvon.

Ko'char – qo'shinning dam olish manzilidan yana yo'lga chiqishi.

Ko'ha – urush asbobi, sovut (*va jiba va javshan va ko'ha va qolganduruq va qorbichi va oha yo'sunluq urush asbobin ham turk tili bilan ayturlar. "Muhokamat ul-lug'atayn"*).

Lashkar – askar, qo'shin.

Lashkarkash – lashkarboshi.

Lashkaroro – g'olib, yenguvchi, jangda qo'shin safini tartibga soluvchi.

Lashkarshikan – jangchi, saf buzar, g'olib.

Livo – bayroq, tug'.

Lijom – yugan.

Mavkib – podshoh yonidagi suvoriylar guruhi.

Maydon – maydon, jang maydoni, janggoh.

TAHRIRIYAT





TO'PPONCHA SO'RAGAN SHOIR:

CHO'LPONNING MATBUOTDAGI CHIQUISHLARIDA QANDAY MASALALAR KO'TARILGAN EDI?

XX asrning 20-yillari Turkiston uchun nafaqat siyosiy beqarorlik, balki sinovlar davri ham edi. Yangi tuzum va eski qadriyatlar to'qnashgan bir pallada ziyolilar zimmasiga millatni uyg'otish bilan bog'liq og'ir mas'uliyat yuklangandi. Ana shunday murakkab sharoitda Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ham ko'plab zamondoshlari qatori kurash maydonida edi. Uning turli matbuot nashrlarida bosilgan xabar, murojaat va maqolalari bir shoirning emas, butun bir davrning ma'naviy portretini ochib beradi.

Notinchlik, bezovtalik va yetilib borayotgan xavf, og'ir bosim ijod ahlining nafaqat qalamida, balki shaxsiy hayotida ham tobora sezila boshlaydi. Afsuski, bunday voqealiklar Cho'lpon taqdirini ham chetlab o'tmadi. U "Darxon"da ishlab yurgan paytida ehtimoliy xavf-xatarlardan saqlanish uchun Andijon harbiy inqilob qo'mitasiga murojaat qiladi. Vaqtincha foydalanish maqsadida to'pponcha so'rab yozilgan ushbu ariza bugun Andijon viloyati davlat arxivida saqlanmoqda. Hujjat 1923-yil 15-iyul sanasi bilan rasmiylashtirilgan bo'lib, unga o'sha davrdagi muvaqqat

rais Yormuhammad o'g'li "Bir dona to'foncha topib berilsin" degan javob qaytargan. Akademik N. Karimovning ma'lum qilishicha, bu murojaat qanoatlantirilib, Cho'lponga qo'mondonlik tomonidan "Brauning" rusumli to'pponcha berilgan. Bunday hodisalar shoir tegrasida nechog'li murakkab davr charx urayotganidan dalolat edi.

Cho'lponning turli gazetalarda bosilgan xabar va murojaatnomalari uning fojiali taqdiri, shuningdek bizgacha yetib kelmagan asarlari haqida muhim ishoralar beradi. Jumladan, shoirning 1923-yil 18-fevralda e'lon qilingan murojaatida "Uzun quloq bobo" xususida "Turkiston" gazetasi tahririyatiga yo'llagan xatida Cho'lponning bizga noma'lum bo'lib qolgan ikki pardalik sahna asari mavjud bo'lgani, uning yo'qolib qolish sabablari ham oydinlashtiriladi. **Parcha:**

"...Mening "Uzun quloq bobo" nomliq 2 pardalik kulgi asarimni oqqa ko'churub, o'zbek truppasiga topshirmoq sharti bilan mazkur truppaning eng muqtadir bir artisti olg'on edi. Hozir shul asarning mazkur artist qo'lida borlig'i shubhali bo'lub qoldi. Eshitganimga ko'ra, bechora asarim Samarqand san'at havaskorlariga "tortuq" qilinib, berib yuborilg'on emish. Shuning uchun gazeta orqali eshitdirmakchi bo'lamankim, butun haq va huquq o'zimda bo'lg'on ul asar qayda bo'lsa ham, bosdirilsa yoki sahnaga qo'yulsa, shunga aloqalik kishilarni hukmga tortg'umdir".

Cho'lpon ijodiy merosining bizgacha to'liq saqlanib qolmagani tasodifiy hol emas,

albatta. Doimiy ko'chishlar, ijara manzillardagi sargardonlik shoir uchun nafaqat ruhiy, balki ijodiy yo'qotishlarning ham sabablaridan biri edi.

Ma'lumki, u turli davrlarda Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand, Moskva kabi shaharlarda ta'lim va xizmat yumushlari bilan bo'lib, goh tanish-bilishlarning uyida, goh ijara xonalarda yashashga majbur bo'lgan. Beqaror hayot tarzi tufayli ayrim qo'lyozmalarining yo'qolib qolishi tabiiy jarayon edi. Jumladan, "Turkiston" gazetasi 1923-yil 12-aprel sonida e'lon qilingan murojaatda shunday deyiladi:

Istakli muharrir o'rtoq'im! (Boshqarmaga xat)

"Yaqinda mening bir daftarcham yo'qoldi. Qog'oz muqovaliq ul daftarchaga so'ng vaqtda yozg'on she'rlarimni yig'ib, ko'chirgan edim. Agar yanglishmasam, u daftarchada "O'ynamoq va kulmak istar ekan", "Qish oldida", "Qushning esdaligi", "Noma", "Qora ro'molliqqa", "Echki uynatuvchi qizg'a" nomliq she'rlarim bor edi. Shuni ko'rgan-bilgan o'rtoqlar bo'lsa, o'zimga qaytarmoqlarini so'rayman. Shuning yo'qlig'i ikkinchi she'r majmuamning chiqmaslig'ig'a sabab bo'lub turadir. To'la ehtirom bilan, Cho'lpon".

Cho'lpon o'z davrining chin ziyolisi sifatida millat qadrini ko'tarishni, xalqning boy o'tmishi, tarixiy xotirasini asrashni o'zining muhim vazifasi deb biladi. Shu maqsadda o'z fikrlarini ochiq xat, bildiruv sifatida gazeta sahifalarida chop ettirib boradi. Ayniqsa, u Navoiy, Ulug'bek, Uvaysiy haqidagi chiqishlari orqali millatning ko'hna merosiga e'tibor qaratadi.

Shulardan biri Cho'lponning o'zbek bilim hay'atiga yo'llagan "500 yil" nomli ochiq xati bo'lib, "Turkiston" gazetasi 1924-yil 23-sentabr sonida e'lon qilingan. Xatda shoir yaqin bir-bir yarim yil ichida Alisher Navoiy vafotiga 500 yil to'lishini eslatib, o'z tarixiga ega bo'lgan xalqlar bunday sanalarni katta bayram sifatida nishonlashini aytar ekan, bu borada muhim takliflarni bildiradi:

"...Vatandoshlarimiz ruslar Pushkinning har 5 yili uchun ham katta bayramlar yasaydirlar. G'arbda esa unday bayramlar juda katta tantanalar bilan o'tkaziladi. Bu to'g'rida gapni cho'zib o'tirish hojat emas. Ko'z bilan ko'rganimiz ham yetib ortarliqdir.

Shuning uchun men aytmoq istaymankim, Navoiyning 500 yilligini biz ham tegishlik darajada tantana bilan o'tkazishga shu topdan hozirlana boshlayliq".

(Eslatma: Tadqiqotchi olimlarimiz shu o'rinda matbaa xatosimi yoki Cho'lpon adashganini aytadi. 1926-yilda, ya'ni Cho'lpon aytmoqchi, yaqin bir-bir yarim yil ichida Navoiy vafotiga 425 yil to'lar edi. Ammo muallif "Navoiyning 500 yilligi" tantanalari haqida gapiradi. Chamasi, Cho'lpon shoir vafotining 425 yilligini va keyinroq tavalludining 500 yilligini nishonlashni nazarda tutgan).

E'tiborlisi, muallif maqolada Navoiy siymosini abadiylashtirish bilan bog'liq muhim takliflarni o'zbek bilim hay'atining e'tiboriga havola etadi:

"1. Hozirdan boshlab yaraliq kishilarimizdan bir hay'at tashkil qilib, 500 yillik bayramni mumkin qadar tantana bilan o'tkazish

yo'lini topmoqg'a o'shal hay'at vakil qilinsun.

2. Hay'at Navoiyning bosilmag'on asarlarini topib, bosdirishg'a lozim ko'ulg'onlarini bayramgacha bosdirish chorasini ko'rsun.

3. Navoiyning mukammal tarjimaiy holi yozdirilsun.

4. Navoiyning shevalaridan terma bir asar tuzulub, nafis qilinib bosdirilsun.

5. Navoiy nomig'a yuqori o'qush yurtlarining adabiyot-til fakultetlarida o'zbek talabalari uchun stipendiyalar ochilsun.

6. O'zbekistonning poytaxtida Navoiyg'a haykal tikilsun.

7. Ba'zi bir o'zbek shaharlarining ko'cha ismlari Navoiy otig'a qo'yulsun".

Shoirning 102 yil oldin bergan taklifi, buni qarangki, bugun to'la-to'kis amalga oshdi.

Shuningdek, shoir "Mirzo Ulug'bek" maqolasida dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan bobomizning nomi va ilmiy yutuqlari e'tiborsiz qolayotganidan tashvishga tushadi. Quyidagi maqoladan parchada buyuk ota-bobolarimizning shon-shuhratini tiklash va ulug' merosini asrab-avaylashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar aniq ko'rinishda namoyon bo'ladi.

"...Turkiston xalqi, ayniqsa biz tubjoy xalq, o'zimizning shu olim kishimizni sira esga olmaymiz. Uning ismiga birgina, kichkina bo'lsa ham, xotira nishona yo'q. Shaharlarda ochilg'on maktablar bilangina u ulug' olimni taqdir qildi, deb ayta olmaymiz. Sira, sira ayta olmaymiz. Toshkand rasadxonasi hozir bir ishga qadam qo'ydi. Girmoniyadagi "Nasiys" korxonasiga buyurib, katta bir telesko'p (rasadxona durbini) yasatdirmoqchi va u durbinni Toshkand rasadxonasiga o'rnatub, unga "Mirzo Ulug'bek durbini" deb nom qo'ymoqchi.

Bu durbin bir Turkistondaguna emas, balki butun dunyoda birdan bir katta durbin bo'ladur. Nimagakim, bundoq zo'rliqda va bu o'tkurlikdagi durbin faqat Amriqodagina bordur. Korxonachi bilan so'zlashilgan. Durbin oltun hisobi bilan 96 000 so'mga tushadur. Bu puldan 40 000 so'mi pishaki berilsa, durbin 2-2,5 yilda tayyor bo'lib keladur. Tashabbus boshlang'on. Ish, faqat shu pulni yig'ishda qolg'on".

Ko'rinadiki, bu shunchaki sa'y-harakatlar emas, millat taqdiriga jidd-u jahd bilan kirishishdir.

Shuningdek, Cho'lpon 1925-yilda "Maorif va o'qituvchi" jurnali 7-8-qo'shma sonida "Ulug' hindiy" nomli maqolasini e'lon qiladi. Unda hindning buyuk shoiri Rabindranat Tagor ulug'ligini Himolay tog'lariga qiyos qilib, shu orqali o'z zamonamiz ahvoliga ham kuyunchaklik bilan nazar soladi.

Parcha:

"...Bizning o'zbeklar uchun hali hozirg'a u xil chuchmallik yo'q. Nimaga desangiz, o'zbeklar eskidan – hech sababsiz – arazlag'on, xafa; yangiga – endigina suqulib kirmoqda. U adabiyot maydonida yangilikka nisbatan: yosh bola, go'dak, chaqaloq, eskilikka nisbatan: yetim, kimsasiz; беспризорный o'zboshli! Jur'at qilib: "yo'lsiz" deb yuborayin deymen-u, qo'rqamen; negakim boshlab... o'zim yo'lsiz!"

Shu o'rinda shoir o'zining ham yo'lsiz ekaniga urg'u berar ekan, ayrim birxilliklar uni zeriktirganini, zamon bilan hamnafaslik, yangicha yondashuvlarga tashnalik, **o'z zamondoshlaridan umidvorligi haqida ham to'xtaladi:**

"...O'zimning yo'lsizlig'imdan biroz so'zlab o'tayin: Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o'qiymen: bir xil, bir xil, bir xil!"

Ko'ngil boshqa narsa, yangilik qidiradir: Botu, G'ayraty, Oltoy, Oybek, Julqinboylarni o'qiymen, quvontiradir xolos! Ular mening uchun yong'on chiroqlar bo'lsa ham mening ertam uchun! Avloniy, Tavallo, Siddiqiy, Hakimzodalarni o'qumaymen, o'qumaymen, meni shu holg'a solg'on o'shalar!..

Nechun ochildi ko'zim. Qayda ketdi uyqularim?.."

Shoirning navbatdagi "Uvaysiy" nomli maqolasi "Yorqin turmush" jurnalining 1936-yili 4-5-qo'shma sonida e'lon qilinib, unda chistonlari bilan mashhur shoiraning ayanchli holini-da hikoya qiladi. Bu ma'lumotlar shoira tarjimaiy holi haqidagi achchiq haqiqatlarni bizga eslatadi.

Parcha:

"...Uvaysiy marg'ilonlik bo'lgan. Umarxon o'rdasida xonning o'zi boshliq bir necha shoir bo'lganini (Fazliy, Ado, Hoziq, Gulxaniy va boshqalar), ularning tez-tez to'planib, mushovara qilishg'anlarini eshitgandan keyin o'sha shoirlar majlisiga kirmak havasiga tushadi. Buning uchun Qo'qonga bormoqchi bo'lib, otasidan ijozat so'raganida, otasi uning talabini qaytarmasa-da, qizning saroydagi shoirlar majlisiga kirishiga yordam ko'rsatar, degan umid bilan Qo'qondagi obro'li odamlardan bir do'stining hovlisiga yuboradi. U odam, qizning shoira bo'lsa ham, hali yosh ekanini ko'rib, ikkilanadi:

– Bu holingizda borib kirolmassiz. Bironota qari xotin qiyofasida borib ko'rsangiz, – dedi.

Jahonoyi qari kampir kiyimlarini kiyib, eski parangi yopinib o'rdaga boradi. Uni kiritmaydilar. So'ngra u "Zaboningni" deya boshlangan g'azalidan mana bu ikki yo'lni yozib, shoirlar majlisiga kiritadi:

"Meni "Latakhuli" deb mahrum etma bog'bon ahli, Azal degoni bag'rim qonini to'kkan bu gulzora".

Shundan so'ng uni shoirlar majlisiga kiritadilar, Faqat u yerda uning qari kampir emas, yosh bir juvon ekani bilingandan keyin biror "fitna" chiqmasin, deb bo'lsa kerak, uni darhol saroy ichkariligiga kiritib yuboradilar. Shu bo'yicha Jahonoyi Umarxon saroyida qolib ketadi va so'ngroq "Jahon otin" deb shuhrat chiqaradi".

Cho'lpon mashhur "Anor" chistonining yaratilish tarixiga ham alohida to'xtalib, uning paydo bo'lishiga turtki bo'lgan hayotiy voqea, **ijtimoiy muhit bilan bog'liq davrni ham aytib o'tadi:**

"...Jahon otinga bir kun, dasturxon ustida anorni ko'rsatib, shu to'g'rida bir narsa demakni iltimos qilg'anlar. Jahon otin o'sha minutning o'zida anor to'g'risida to'rt yo'llik bir she'r yozgan. Badehago'lik yo'li bilan yozilgan bu to'rt yo'llik bayt anorni qanday go'zal va san'atkorona tasvir qiladi:

"Bu na gumbazdir, eshigi tuynugidan yo'q nishon, Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdir makon, Sindirib gumbazni qizlar holidan olsam xabar: Yuzlariga parda tortig'liq, tururlar bag'ri qon".

"Yuzlariga parda tortilgan "qizlarning" bag'rlari qon" bo'lganini aytgan, saroy cho'riqizlarining ohi zorini tasvirlab beradi".

Cho'lpon, shuningdek 1914-yil 13-dekabrda "Sadoyi Farg'ona" gazetasining 94-sonida chop etilgan "Til bilmaganlik hosiyati" nomli maqolasida Petrograddagi Obuxovski kasalxonasida yarador bo'lgan bir turkman haqida yozar ekan, uning o'limi sababini o'z tilidan boshqa tilni bilmasligida ko'radi. **Bu orqali shoir til bilmaslik, ba'zan hayot-mamot masalasiga aylanib qolishini uqtiradi:**

"...Kasalxonada yotganda holi og'irlashgandan keyin harakat qilib, imo-ishora ilan bir narsa anglatmoqchi bo'lgan, turkmancha ham so'zlab qaragan, lekin kasalxonada turkmancha biladurgan hech bir kishi yo'qligi uchun aning maqsudini bila olmaganlar.

Kasalxona idorasi "Вечерня ермя" gazetasi orqali xalqqa murojaat etub, turkmancha biladurgan topilib kelguncha bechora turkmanni umri vafo qilmay olamdan o'tgan. Til bilmaslik "xosiyat"idan bechora o'zining dunyodagi vasiyatlarini anglatolmay, ojizlik holda dunyodan rihlat qilgan".

Shoirning yana bir achchiq mavzusi xalq orasida eski kitoblar

savdosining yo'qligi masalasidir. Shu yo'lda A. Qodiriy, Cho'lpon, Elbek, N. Alimuhammedov, S.Siddiqlar birgalikda "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1935-yil 27-may sonida "Eski kitoblar savdosini qo'lga olaylik" maqolasini chop etadi.

Parcha:

"...Jumhuriyatimizning turli burchaklarida, har kimlarning qo'lida bekinib, ortiqcha matoh bo'lib yotgan qimmatli asarlar juda ko'p. Bular egasini topolmay, chang-tuproq orasida ko'milib yotadi. Holbuki, kundan kunga soni o'sib turgan ilmiy xodimlarimiz uchun ular juda kerak. Undan tashqari, saviyasi o'sib, madaniy darajasi ko'tarilib turgan omma ham yangi va eski kitoblarga talabgor".

Maqolada Turkistondagi ayanchli hol ittifoqning boshqa qismlari bilan taqqoslanadi:

"...Chunonchi, Moskvada nuqul eski kitoblar olib sotilaturgan o'nlarcha davlat magazinlari bor. Bizda ham eski kitoblar boyligining zo'r ekaniga qaramay, butun O'zbekistonda loaqal bir kioska ham yo'q. Shuning uchun bu ish allaqanday savodsiz odamlar, to'g'risi chayqovchilar qo'lida qolib kelmoqda".

Aslida Cho'lpon o'zining ilg'or safdoshlari, do'stlari qatori jamiyatni yuksaltiruvchi turli yo'nalishlarning ochilishiga xayrixoh edi. Shoirning "Ko'mak" ishlari" maqolasi "Farg'ona" gazetasining 1924-yil 31-yanvar sonida chop etilib, unda bugunimizda ham muhim sanalgan masala, "Hozirliq qurslari" (tayyorlov kurslari) va "Xotun-qizlar uchun savod qurslari" ochilishiga rag'bat bildiriladi. Maqolalarda "Ko'mak"ning harakati bilan yaqinda 30 kishilik hozirliq kurslari ochilgani, o'rta va oliy maktablarning kelgusi tahsillari uchun talabalar hozirlanmoqchi ekani, bu masala ijroqo'mda tasdiqlangani aytiladi.

Cho'lpon tomonidan matbuotda bunday xabar va maqolalar tez-tez bosilib turgan. Ularning qamrovi keng va o'ta muhim. "Tilimizning ishlanishi", "Yozuvchilarimiz Chirchiq qurilishida", "Katta maktab egasi", "Ish vaqti – ishlash vaqti", "Andijonda yangi bonk", "Qaysi jinni", "Madrasalarimiz ahvoli", "Ruhimiz o'lmasun", "Muttahid frontimizning birinchi vazifalari", "Millat masalasi", "Mahkamalarni tubjoylashtirish", "Vaqf ishlari", "Tirnoq orasidan kir izlanmasun", "Shaharni yoritish ishlari" va shu kabi yuzlab masaladagi chiqishlari uning millat g'am-tashvishi, dardi bilan qanchalik bog'langanidan dalolat beradi.

Kapitan Bobur ELMURODOV, "Vatanparvar", filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Chegara qo'shinlarida

SAFIMIZGA QO'SHILAYOTGAN BUNYODKOR KUCH



“Yoshlarimizga qarab, ular erishayotgan yutuqlarni ko‘rib, ko‘nglimiz tog‘dek ko‘tariladi, qanday ulkan bunyodkor kuch safimizga qo‘shilayotganidan g‘ururlanib ketamiz”, – ushbu so‘zlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil yakunida Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida alohida ta’kidlab o‘tildi.

Shuningdek, bugungi murakkab zamonda yoshlarimizni turli sinovlarga chidamli, asl vatanparvarlar etib tarbiyalash oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Albatta, kelajagimiz bunyodkorlari bilan tashkil etilayotgan keng qamrovli tadbirlarda davlat hamda jamoat tashkilotlari bilan bir qatorda, kuch tuzilmalari ham o‘zlarining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda.

Xususan, yurtimizning chegaraoldi hududlaridagi umumta’lim muassasalari o‘quvchi-yoshlari ishtirokida har yili an’anaviy tarzda o‘tkazilib kelinayotgan “Yosh chegarachilar” harbiy-vatanparvarlik musobaqalari ham har jihatdan yetuk, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur musobaqaning 2026-yilgi mavsumini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari, shuningdek hamkor

vazirlik va idoralar vakillari ishtirokida tashkiliy qo‘mita yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Onlayn videomuloqot tarzida kechgan tadbir avvalida “Yoshlarga oid davlat siyosati” dasturiga muvofiq o‘tkazilayotgan “Yosh chegarachilar” harbiy-vatanparvarlik musobaqasining 2025-yilgi mavsumi tahliliga oid ma’lumotlar hamda uning jarayonlarini aks ettiruvchi videolavhalar ishtirokchilar e’tiboriga havola qilindi. Shundan so‘ng musobaqaning tuman (shahar), viloyat va respublika bosqichlarini vazirlik hamda idoralarning hududiy vakillarini jalb etgan holda, birgalikda munosib o‘tkazish kun tartibidagi asosiy masalalardan biri sifatida ko‘rib chiqildi.

– Bugungi uchrashuv va uning formati menga juda ma’qul bo‘ldi. Chunki tadbir davomida biz joylardagi vakillarimiz bilan onlayn tarzda suhbatlashib, musobaqaning har uchala bosqichini ham yuqori saviyada o‘tkazish

uchun hamkorlikda amalga oshirishimiz zarur bo‘lgan chora-tadbirlarni belgilab oldik. Shuningdek, 2026-yilgi mavsumni g‘oyaviy jihatdan yanada boyitish maqsadida madaniy hordiq tadbirlariga taniqli adiblarni jalb etish, yoshlarga vatanparvarlik ruhidagi qo‘shiqlar va badiiy filmlarni namoyish qilib borish kabi ko‘plab takliflar bildirildi, – deydi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bo‘lim boshlig‘i Suhrob Xidirov.

Ta’kidlash kerakki, musobaqa jarayonlarida o‘quvchi-yoshlar hamda ularning ustozlarini munosib rag‘batlantirish masalasi ham ishchi guruh a’zolarining diqqat e’tiborida bo‘lib, qator taklif va mulohazalar bildirildi.

– Bugungi yig‘ilishimizning ahamiyati juda katta bo‘ldi, – deydi podpolkovnik Zokir Shavmonov. – Avvalambor, biz 2025-yilgi mavsum natijalarini ko‘rib chiqdik. Qolaversa, davlatimiz rahbari tomonidan oldimizga qo‘yilayotgan



vazifalarni inobatga olgan holda, yangi mavsumni qay shaklda tashkillashtirishimiz zarurligini, davomchilarimiz bo‘lgan yoshlarni “g‘oyaviy jangchi”lar etib tarbiyalashimiz uchun nimalarga alohida e’tibor qaratishimiz kerakligini o‘zimiz uchun belgilab oldik. Bu esa, o‘z navbatida, musobaqani o‘tkazish jarayonlarida bizga katta yordam beradi.

Albatta, yoshlar masalasiga jiddiy e’tibor qaratilib, jamiyatning barcha bo‘g‘inidagi vakillari birgalikda harakat qilar ekan, ertamiz egalari har tomonlama barkamol, qat’iyatli va yurtparvar bo‘lib voyaga yetishlari, shubhasiz.

**Mayor
Farida BOBOJONOVA**
DXX Chegara qo‘shinlari



Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni vatanparvarlik, fidoyilik va mas'uliyat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi, kasb-hunarga ega bo'lishi, sog'lom dunyoqarash va mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda harbiy tuzilmalarning o'rni tobora ortib bormoqda. Shu ma'noda Markaziy harbiy okrugda yoshlar bilan ishlash yo'nalishida amalga oshirilayotgan tizimli va manzilli ishlar e'tiborga molikdir.



KELAJAKKA TIZIMLI YONDASHUV

Markaziy harbiy okrugda yoshlar bilan ishlash yo'nalishi bo'yicha mas'ul ofitserlar va serjantlar tomonidan doimiy va izchil faoliyat olib borilmoqda. Okrug tasarrufidagi Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on hamda Navoiy garnizonlarida xizmat qilayotgan mas'ul harbiy xizmatchilar tomonidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatanga sodiq, fidoyi va tashabbuskor shaxslar etib voyaga yetkazish maqsadida keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur jarayonda alohida toifadagi yoshlar, mahallalardagi uyushmagan yoshlar, umumta'lim maktablari o'quvchi-yoshlari hamda muddatli harbiy xizmatchilar qamrab olinib, ular bilan tizimli, maqsadli va samarali ishlar yo'lga qo'yilgan.

Yoshlar bilan ishlashda muhim ahamiyat kasb etayotgan tashabbuslardan biri **“Jasorat maktabi”** o'quv-yig'inlaridir. Ushbu yig'inlar davomida 100 nafarga yaqin uyushmagan va otaliqqa olingan yoshlar 10 kun davomida harbiy-intizomiy, ma'naviy-ma'rifiy va amaliy mashg'ulotlarga jalb etiladi.

2025-yilda o'tkazilgan **“Jasorat maktabi”** yig'inlari natijasida, bir qator yoshlarning bandligi ta'minlanib, ularning kasb-hunarga yo'naltirilishi yo'lga qo'yildi. Xususan, Jizzax garnizonida **7 nafar** ishtirokchi yoshlar yetakchisi sifatida faoliyat boshlagan bo'lsa, Samarqand

garnizonida **2 nafar** yoshga yer haydash texnikasi topshirildi. Navoiy garnizonida esa bir nechta yoshlarga sartaroshlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun zarur asbob-uskunalar olib berilib, ularning mustaqil faoliyat boshlashiga amaliy ko'mak ko'rsatildi.

Bundan tashqari Samarqand viloyati hokimligi hamda Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda **50 nafar** yoshga **“Damas Labo”** rusumli avtomobillar imtiyozli kredit asosida berilib, ularning kasb-hunar bilan shug'ullanishiga keng imkoniyatlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida muddatli harbiy xizmatning yangi modeli shakllantirilishi belgilandi. Ushbu modelga ko'ra, har bir harbiy xizmatchi armiyadan qaytgach, nafaqat harbiy tayyorgarlik, balki kasbiy ko'nikmalar va aniq hayotiy istiqbollarga ham ega bo'lishi lozimligi alohida ta'kidlandi.

Xususan:

- “Bir million dasturchi” va “Sun'iy intellekt sohasida besh million yetakchi” dasturlari doirasida har yili muddatli harbiy xizmatchilarni o'qitish;
- harbiy xizmat davrida oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- harbiy xizmatdan so'ng

ta'limni davom ettirish, sertifikat xarajatlarini qoplash va foizsiz ta'lim kreditlari ajratish;

- muddatli harbiy xizmatni o'tab qaytgan yoshlarni ish bilan ta'minlash, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va ishga joylashishda qo'shimcha imtiyozlar berish kabi masalalar belgilab berildi.

Mazkur topshiriqlar ijrosi doirasida Markaziy harbiy okrugda muddatli harbiy xizmatchilarni o'qitish tizimi yo'lga qo'yildi. Samarqand kasb-hunar ta'limi boshqarmasi bilan hamkorlikda **6 ta yo'nalish** – avtomobil ustasi, elektr ustasi, payvandlash, santexnika, IT va axborot texnologiyalari bo'yicha bepul o'qitish tashkil etildi. Shuningdek, ingliz, nemis va rus tillarini o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Bu esa yoshlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Markaziy harbiy okrug harbiy xizmatchilari tomonidan yoshlar bilan muntazam ravishda **“Rahbar va yoshlar”, “Uch avlod uchrashuvi”, “Vatan taraqqiyotiga mening hissam”** mavzularida uchrashuvlar va ochiq muloqotlar tashkil etilmoqda. Shuningdek, **“Vatan qadri”, “Vatan oldidagi mas'uliyat”, “Mardlik va shijoat”** mavzularidagi davra suhbatlari yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'quvchi-yoshlarning **“Millat fidoyilari”** monumenti, harbiy qismlar va muassasalar muzeylari

hamda **“Vatanparvar”** bog'iga tashriflari tashkil etilib, tarixiy xotira va milliy g'urur tuyg'ulari mustahkamlanmoqda. Harbiy orkestrlar, badiiy havaskorlik guruhlari ishtirokida ma'naviyat karvonlari, harbiy-vatanparvarlik tadbirlari, sog'lom turmush tarzini targ'ib etuvchi **“Salomatlik uchun 5 ming qadam”** yurish marafonlari keng miqyosda o'tkazilmoqda.

Bundan tashqari, **“Biz giyohvandlikka qarshimiz!”**, **“Korrupsiyaga qarshi halollik vaksinasi”** mavzularida profilaktik tadbirlar, **“Har bir yoshning qalbi va ongi uchun kurashamiz!”** shiori ostida ma'naviyat festivallari yoshlar orasida salbiy illatlarga qarshi immunitetni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda Markaziy harbiy okrugda yoshlar bilan ishlash faqat targ'ibot bilan cheklanib qolmay, balki yoshlarning real hayotiy muammolarini hal etishga, ularni kasb-hunarli, vatanparvar va tashabbuskor etib tarbiyalashga qaratilgan kompleks tizim sifatida shakllanmoqda. Bu esa Yangi O'zbekistonni barpo etishda fidoyi va mas'uliyatli yoshlar safini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

**Mayor
Muzaffar MURODOV,
Markaziy harbiy okrug
tarbiyaviy va mafkuraviy
ishlar boshqarmasi
katta ofitseri**



MANTIQ VA MANTI

yoxud “q”ning ahamiyati

Adabiyot – qalbning to‘lqini, tafakkur mahsuli. She‘r qalbdan tug‘iladi, deymiz, ammo qalb ham betartib emas, uning o‘z mantig‘i, o‘z ichki intizomi bor. Ana shu mantiq ko‘tarilgan paytda so‘z o‘z og‘irligini, ma‘no esa o‘z qadrini yo‘qota boshlaydi. Afsuski, bugun adabiyot maydonida shakl mazmundan, ovoz ma‘nodan ustun qo‘yilayotgan holatlarga tez-tez duch kelyapmiz. So‘z aytilyapti, ammo fikr yo‘q. Ohang bor, ammo ruh sezilmaydi. Natijada she‘r asta-sekin so‘z san‘ati emas, shunchaki ovoz chiqarish, o‘zini ko‘rsatish vositasiga aylanib bormoqda. Bu esa adabiyot uchun eng xatarli holatlardan biridir.

Holbuki, haqiqiy she‘r his bilan tafakkurning tutashgan joyida tug‘iladi. Unda tasodifiy satr bo‘lmaydi, har bir so‘z o‘z o‘rniga ega, har bir tanaffus ham ma‘no bilan sug‘orilgan bo‘ladi. Agar she‘r o‘quvchini o‘ylatmasa, uning qalbiga savol tashlamasa, u qanday zamonaviy, qanday erkin bo‘lmasin, o‘z vazifasini bajargan hisoblanmaydi. So‘z o‘yinchoq emas. Uning oldida ham mas‘uliyat, ham hisob bor. Men bu haqda ko‘p o‘yladim va mulohazalarimni qog‘ozga to‘kishga qaror qildim. O‘ylamang, buni kimnidir ranjitish uchun yozmadim, aksincha shoirilarga so‘zning obro‘sin, she‘rning ma‘naviy vaznini yana bir bor eslatib qo‘ymoqchiman, xolos.

Adabiy tanqidchilik yo‘qolib boryapti deb yursam, adabiy mantiqchilik ham yo‘qolib bo‘lgan ekan. Kunimiz yolg‘on she‘rlar-u, otarchi shoirilarga qoldi. Yomoni esa, yaxshi ijod bilan kirib kelgan katta ijodkorlarimiz ham shu mantiqsizlik tomon ketayotganga o‘xshaydi. Og‘ziga kelgan gapni yozib, “bu oq she‘r, modern she‘r, erkin she‘r”, deb gapingni bo‘ladi. Albatta, bu janrlar va uslublar bilan yozilgan yaxshi she‘rlar yo‘q emas, faqat iste‘dodsizlikni tepadagi gaplar orqali xaspo‘shlaydiganlar ko‘payib ketdi, demoqchiman. Qanday she‘r bo‘lgan taqdirda ham, mantiqsiz, maqsadsiz she‘r bo‘lmasa kerak har holda.

Kecha bir do‘stim bilan gaplashib o‘tirib, hazil aralash ChatGPTdan she‘r yozib berishini so‘radik. Ishonasizmi, yo‘qmi oramizda o‘z nomiga ega, 3-4 ta kitob chiqarganlarning yozmalaridan tuzukroq narsalarni qoralab bersa deng. Hazil qilib, “ChatGPT haqida bilib qolganimizni hammaga aytishimiz kerak emas, bunaqada kimlarningdir keti ochiladi”, deb kulishdik.

Kimdir ochiqchasiga aytishi kerak-da, “Yozayotganing she‘r emas”, deb. Yana aynan shu toifa o‘zini yettinchi osmonning tepasida, deb o‘ylaydimi, biz kabi quyi qatlam – g‘arib-u g‘urobolari she‘rlari haqida fikr bildirsak, bizni she‘rni tushunmas, ilmsiz, omiga chiqarib qo‘yishadi. So‘zlarimni o‘qib ensangizni qotirmang, bor gap-da.

Hozirgi jamiyatga mantiq haqida gapirgandan ko‘ra, yog‘liqqina manti haqida gapirish qiziqroqdek tuyulib qolgan.

Manti va mantiq so‘zlari shaklan to‘qson foiz o‘xshash. Lekin lug‘aviy jihatdan har holda mantida biroz

mantiq bo‘lsa bordir, lekin mantiqiy mantini yegan odam bo‘lmasa kerak. Har holda manti bilan mantiq emas, qatiq yaxshi ketadi. Bema‘nilik-a? Atayin yozdim. Lekin bugungi kitoblarga bag‘ishlangan ayrim taqriz va maqolalarni o‘qisam, “manti va mantiq” bog‘liqligi esga tushyapti. Chunki mualliflar goh asli mantiqsiz yoziqqa yuksak ma‘nolarni yuklasa, goh jo‘yali asarga ham mantiqsiz fikrlar bildiradi.

Eh, gapirsam gapim ko‘p, gapirmaslik esa yanada og‘ir. Toshkentga endi kelgan kezlarim “shoirilar bilan uchrashaman” degan samimiy orzu bilan, og‘zim qulog‘imda yurganman. Ammo vaqt o‘tib angladimki, bu yerda ba‘zida alohida shaxsning emas, balki guruhlarining ovozi balandroq eshitilar ekan. Ayrim hollarda kimgadir ma‘qul kelmasangiz, bu hol butun bir davraning sizdan uzoqlashishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ana shu muhitda haqiqatni izlab yurish oson kechmadi, ko‘p marta ikkilanib, yo‘l qidirib qolgan paytlarim bo‘ldi. Adolat deb og‘iz ko‘pirtirib yurgan shundaylarning qo‘liga amal tegib qolsa bormi, shaxsiy adovat uchun sizni bir lahzada yer bilan yakson qiladi. Bu yerda ham qani mantiq?

Qo‘lim qichib, she‘rlaridan misollar keltirib, nomlari bilan sanab chiqqim bor. Lekin nima foyda deysiz. Axir

biri haqida gapirsangiz, uzundan uzun postlar bilan bir-birini himoya qilib chiqadi. “Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong‘i chiqmas”, deganlaridek kamina yolg‘iz o‘zi qolib ketaveradi. Guvohi bo‘lgan adolatpeshalar ham jim kuzatishdan nariga o‘tmaydi.

Kecha bir modernizm pirlarimizdan birining kuz haqidagi she‘rini o‘qib qoldim. Nima deyayotganini o‘zi ham bilmaydi. Odam shunchaki muloqot davomida ham u darajada ohangsiz gapirishi mumkin emas. She‘r esa rus tilidagi so‘zlarga qorishib yotibdi. Har yili 21-oktabr sanasida til haqida uvvos solib, ensangni qotirib chiqadigan bu odam shoirimiz esa fikr bildirgan o‘qirmanlarga nisbatan qilgan muomalasini ko‘rib, yoqa ushlab qolasan: “She‘rni tushunmasang nima qilasan fikr yozib? Men she‘rimni tushuntirishga majbur emasman”. She‘riga qo‘shgan ruscha so‘zlarning ko‘pligini uyalmasdan “o‘zbekchada muqobilini topolmadim”, deb izohlayapti yana.

Shu she‘ringni yozma, millat she‘rsiz qolib ketarkanmi sen shuni yozmasang? Meni eng og‘rintirgan narsa shundaylarning atrofiga yig‘ilayotgan odamlar. Ularga rahmim keladi...

Ufff, aytnasam bo‘lmadi, she‘rga tanlangan mavzularni qarang:

“Fohisha”. Anavi yo‘ldan chiqqan gumrohni shu darajada oqlikka burkab qo‘yadiki, jamiyatni eng oqila ayollari fohishalar deb o‘ylab qolasiz. O‘shalarni yo‘ldan adashtirgan ham shular o‘zi. Keyin “Ona”, “Ayol” mavzusidagi she‘rlarga “voh” deb yuborasiz. Ota doim yomon. Urgan, haydagan, shafqatsiz. Holbuki, umri oila deb musofirlikda o‘tgan otalar ham bor. Guruch kurmaksiz bo‘lmagani kabi, ba‘zi nodonlari ham bordir, lekin bu milliondan bir desam adashmayman.

Oxirgi mavzu bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri – “Turon”, “Turkiston” mavzusi. Yozganimiz yaxshi, lekin siyqasi chiqib ketdi-ku. Sevgi haqida yonib, qo‘llaridan tutib, bog‘da sayr etib, bag‘riga bosgan payti ko‘zida Turonni ko‘rib qolavermanglar, iltimos. Boshqa mavzular ham bor. Bolalarning bordir, oilang bordir, shularni ham sev. “Vatan ostonadan boshlanadi”, degan gap bor. Shunaqa she‘rlar bilan o‘zingni millatparvar ko‘rsatib, bu yoqda millatning qizlari bilan don olishib, nomusini bulg‘ab yurganing to‘g‘ri emas-da. Turonni har kuni mayxonalarda g‘irt mast bo‘lib qurib bo‘lmaydi-ku. Shoirim o‘zi bilan so‘zi bir bo‘lishi kerak degan gaplar bor. Qo‘yinglar e‘tibor uchun o‘zlaringni millatparvar, xalqparvar ko‘rsatishni.

Hammamiz Vatanni sevamiz. Balki bu tuyg‘uni baland ovoz bilan emas, sokinlikda, o‘z ishimiz, o‘z munosabatimiz bilan ifoda etamiz. Kerak bo‘lsa, shu sukutdagi muhabbat hayqiriqlardan ham kuchliroq. So‘zimni boshida mantiq va mantiqsizlik haqida boshlab, yo‘l-yo‘lakay turli mulohazalarga kirib ketdim. Ammo rostini aytsam, bu holatlarning o‘zida ham mantiq yetishmaydi. Ular yuqorida tilga olganim manti bilan mantiq o‘rtasidagi g‘alati o‘xshashlikni eslatadi. Ayrim she‘rlarda izlanayotgan mantiqni ba‘zan oddiy mantida topgandek bo‘lamiz. Agar shu so‘zlarim kimningdir ko‘ngliga og‘ir botgan bo‘lsa, buning uchun uzr so‘rayman. Bu mulohazalar hukm emas, balki so‘zga, she‘rga va vijdonga nisbatan samimiy qayg‘urish ifodasidir. Ojizona aqlim bilan kimlardir ko‘nglini vayron qilgan bo‘lsam, rozi bo‘lasizlar.

Muhammadali G‘AFFOROV,
“Vatanparvar”





VOYAGA YETMAGANLAR

JINOIY JAVOBGARLIGINI LIBERALLASHTIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olmoqda. Ayniqsa, demokratik huquqiy davlat barpo etish, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, sud-huquq tizimini tubdan takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida "Inson qadri – oliy qadriyat" degan bosh tamoyil yotadi. Qonuniyligni mustahkamlash, adolatni qaror toptirish va fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida sud-huquq tizimida institutsional hamda huquqiy islohotlar izchil ravishda hayotga tatbiq etilmoqda.

Ha, qisqa tarixiy davr mobaynida mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashning samarali mexanizmlari shakllantirildi. Sud hokimiyatining mustaqilligi mustahkamlanib, sud ishlarini ko'rishda inson huquqlarini himoya qilish, ayniqsa ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj qatlamlar manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, bolalar va voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yurtimizda voyaga yetmagan shaxslarning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishlari, ularning jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun zarur huquqiy va ijtimoiy shart-sharoitlar yaratib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, voyaga yetmaganlar deganda 18 yoshga to'lmagan shaxslar tushuniladi. Yangilangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi bilan mamlakatimizda

voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilishning mutlaqo yangi bosqichi boshlandi. Konstitutsiyada bolalar huquqlarining alohida mustahkamlanishi ularning davlat tomonidan kafolatlangan himoyasini yanada kuchaytirdi.

Bugungi kunga qadar jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligi va ularga nisbatan jazo tayinlashning alohida tartibi mavjud bo'lsa-da, voyaga yetmagan shaxsning aynan shu davrda sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik holatining tugallanishiga oid aniq va mustaqil norma belgilanmagan edi. Bu esa amaliyotda ayrim huquqiy noaniqliklarga sabab bo'lib kelgan.

Mazkur bo'shliq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 23-oktabrda imzolangan "Jinoyat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan bartaraf etildi. Ushbu qonun orqali voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlik yanada liberallashtirilib, jazo tizimi insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirildi.

Qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 77, 84¹ va 85-moddalariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Yangi normalarga ko'ra, **o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs sodir etgan jinoyati uchun belgilangan jazoni to'liq o'tab bo'lgandan so'ng sudlanmagan hisoblanadi.** Bu norma yoshlarning jinoyat oqibatlaridan butun umrga "tamg'alanib qolmasligi", ularning

jamiyatga qayta moslashishi va to'laqonli hayot kechirishi uchun muhim huquqiy kafolat hisoblanadi. Yanayam aniqroq aytadigan bo'lsak, bu o'zgarish yoshlar huquqlariga nisbatan insonparvar yondashuvni mustahkamlaydi, ularning qayta ijtimoiy moslashuvini rag'batlantiradi.

Qonunning o'zak g'oyasi jinoyat sodir etgan yoshlar haqida ijobiy qarashni shakllantirish, ularning kelajak hayotida ijtimoiy integratsiyani ta'minlash orqali jinoyatchilikni kamaytirishdir. Bu yo'nalishdagi xalqaro tajribalar ham yoshlar sud tizimida jazoni yengillashtiruvchi omillarni qo'llash fokusida bo'lgani bilan ajralib turadi.

Masalan, xalqaro huquq amaliyotida jinoyat sodir etgan yoshlar bilan ishlashda reabilitatsiya va qayta integratsiya mexanizmlariga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu tizimlar yoshlarni jinoyat yo'lidan qaytarish va ularni ijtimoiy faol fuqarolar sifatida rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ushbu yondashuv jinoyatchilikni oldini olishning samarali usuli sifatida ko'rilmogda va sudlanganlik tamg'asi butun umrlik bo'lib qolmasligi, yoshlar uchun ijtimoiy imkoniyatlar yaratilishi asosiy vazifa qilib belgilangan.

Shu bilan birga, qonunchilikda mazkur imtiyozning qo'llanilishiga aniq cheklovlar ham belgilangan. Xususan, o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxslarga yoki jazoni o'tab bo'lgandan keyin qasddan yana jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ushbu qoida tatbiq etilmaydi.

Yangi qonun bilan, shuningdek ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum etishning eng kam muddatlari ham qisqartirildi. Ilgari eng kam jazo muddati olti oy etib belgilangan bo'lsa, endilikda bir oylik minimal jazo tayinlanishi mumkin. Bu o'zgarishlar ham aslida voyaga yetmagan shaxslarning manfaatlarini himoya qilish va jazo tizimini insonparvarlashtirishga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Ma'lumki, **Jinoyat kodeksining asosiy vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilish, jinoyatlarning oldini olish hamda fuqarolarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashdan iborat.** Ya'ni u qonuniylik, insonparvarlik, adolat, ayb uchun javobgarlik va javobgarlikning muqarrarligi

prinsiplariga asoslanadi. Yangi qabul qilingan qonun ham aynan ushbu tamoyillarga tayanadi.

Ma'lumki, sudlanganlik shaxsning sodir etgan jinoyati uchun hukm etilganidan kelib chiqadigan huquqiy holatdir. Jazo tayinlangan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab shaxs sudlangan deb hisoblanadi. Sud tomonidan jazodan ozod qilingan shaxs sudlanmagan deb hisoblanadi.

Sudlanganlik muddatining o'tib ketganligi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi munosabati bilan uning barcha huquqiy oqibatlari bekor bo'ladi, shuningdek sodir qilingan jinoyat uchun tayinlangan jazoni o'tab bo'linishi bilan sudlanganlik holatining tugallanishi belgilangan bo'lsa, shaxs sudlanmagan deb hisoblanadi.

Yangi qabul qilingan qonun bilan shaxsning voyaga yetmagan davrida sodir etgan jinoyati uchun qonun oldida o'z jazosini to'liq o'tab bo'lgandan so'ng uning oqibatlari kelgusi hayotiga ta'sir qilmasligi va o'z hayotini yangidan boshlashi uchun imkoniyat berilishini ta'minlash maqsadida voyaga yetguniga qadar sodir etgan jinoyati uchun jazoni o'tab bo'lgan shaxs sudlanmagan deb hisoblanishi belgilanmoqda.

Huquqshunoslarning ta'kidlashicha, sudlanmagan hisoblanish huquqiy holati yoshlar uchun katta imkoniyat eshigini ochadi. **Bu ularga nafaqat kelajakda ta'lim olish va professional faoliyat bilan band bo'lish imkonini beradi, balki davlat va jamoat ishlarida faol ishtirok etish, oilada va jamiyatda munosib fuqarolik rolini o'ynash kabi keng ijtimoiy imkoniyatlarni ham taqdim etadi.**

Bundan tashqari, sudlanmaganlik yoshlarda psixologik erkinlik va jamiyatga integratsiya imkonini ta'minlaydi. Ya'ni ular o'zini "sudlangan shaxs" sifatida his qilmaydi, o'z hayotini to'liq va mustaqil boshlash imkoniga ega bo'ladi. Bu mexanizm esa yoshlarning ijtimoiy xavfsizligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi: ularda jinoyatchilikdan qochish, ijtimoiy faol shaxs sifatida rivojlanish orqali jamiyat uchun foydali bo'lish istagini kuchaytiradi. Masalan, ular ta'lim muassasalarida, sport va madaniy faoliyatlarda, ijtimoiy loyihalarda erkin ishtirok eta oladi. Bu esa yoshlar orasida fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yangi qonun va sud-huquq islohotlari voyaga yetmaganlarga ijtimoiy va huquqiy imkoniyatlarini kengaytirib, ularning kelajakda jamiyatda to'laqonli faol shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu mexanizm yoshlarning psixologik barqarorligini ta'minlaydi, ularda o'z hayotini qayta qurish, ijtimoiy moslashish va shaxsiy salohiyatini rivojlantirish istagini mustahkamlaydi.

Yana bir muhim jihat esa mazkur islohotlar yoshlar huquqini kafolatlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va jamiyatda demokratik qadriyatlarni barqarorlashtirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Xurshid SODIQOV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Uchtepa tumani sudi
tergov sudyasi



Harbiy qismda bir kun



VATANGA SADOQAT SABOG'I

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni yurtga sadoqat, tinchlik va osoyishtalikni asrash mas'uliyati bilan ulg'aytirish bugungi kunda davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Zero Vatan taqdiri va kelajagi o'zini shu muqaddas tuproq bilan bog'lagan, fidoyilik va mas'uliyat tuyg'ularini qalbida mujassam etgan yoshlar qo'lidadir. Shu bois yosh avlod ongiga harbiy xizmatning mazmun-mohiyati, Vatan himoyasining sharaflari va muqaddas burch ekanini singdirishga qaratilgan amaliy tadbirlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Samarqand garnizonida joylashgan harbiy qismlardan birida Pastdarg'om tumanidagi umumta'lim maktablari o'quvchilari ishtirokida "Harbiy qismda bir kun" shiori ostida ochiq eshiklar kuni tadbiri tashkil etildi.

Tadbir davomida o'quvchilar harbiy qismning kundalik hayoti, xizmat jarayonlari hamda harbiy xizmatchilarning faoliyati bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa yoshlarning harbiy xizmat haqidagi tasavvurlarini boyitib, ularning kelajakda kasb tanlashida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Harbiy xizmatchilar tomonidan qurol-aslahalar va zamonaviy harbiy texnikalarning ko'rgazmali

namoyishi tashkil etildi. O'quvchilarga jangovar qurollarning texnik imkoniyatlari, ularning vazifasi va foydalanish tartibi haqida batafsil tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, o'quvchilar harbiy qism hududida joylashgan tarix o'quv binosiga tashrif buyurib, harbiy qismning tashkil etilishi tarixi, o'tgan yillar davomida bosib o'tilgan sharaflari yo'li hamda xizmat davomida jasorat va fidoyilik namunasini ko'rsatgan harbiy xizmatchilar haqida atroflicha ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Tadbirning muhim jihatlaridan biri yoshlarning harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan

shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishganidir. Ularga zamonaviy yotoqxonalar, o'quv xonalari, sport majmualari, tibbiy xizmat ko'rsatish sharoitlari va kundalik xizmat tartibi namoyish etildi.

Tadbir davomida o'quvchilar harbiy xizmatchilar bilan bevosita muloqot qilib, ularning xizmat tajribalari, hayotiy qarashlari va Vatan oldidagi burch haqidagi fikrlarini tingladilar.

Parvina ABDUHAMIDOVA,
Markaziy harbiy okrug
matbuot xizmati bosh mutaxassisi

Tibbiy ko'rik

HARBIY XIZMATCHILARNING SALOMATLIGI YO'LIDA

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari salomatligiga e'tibor qaratish Mudofaa vazirligining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda respublikamizning deyarli barcha viloyatlarida joylashgan harbiy qismlarda Sog'liqni saqlash vazirligi hamda "Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya fondi bilan hamkorlikda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda.



Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun joriy yil mobaynida o'tkaziladigan chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklarga start berish tadbiri tashkil etildi.

Tadbirda Sog'liqni saqlash vazirligi, Markaziy harbiy klinik hospitali hamda "Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya fondi rahbariyati va vakillari ishtirok etdi. Dastlab mehmonlar harbiy qismda yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdilar.

Qo'mondonlik madaniyat markazida davom etgan tadbirda so'zga chiqqanlar, bugungi kunda harbiy xizmatchilar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar, ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar xususida fikr-mulohazalar bildirdi. Shuningdek, o'tgan davr mobaynida o'tkazilgan tibbiy ko'riklar natijalari sarhisob qilinib, kelgusidagi rejalarga aniqlik kiritildi.

Kunning ikkinchi qismida qo'mondonlik boshqaruv apparati hamda Toshkent shahrida joylashgan harbiy qismlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirokida chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik tashkil etildi.

Ko'rikda pediatr, terapevt, ginekolog, oftalmolog, otorinolaringolog, nevrolog, endokrinolog kabi mutaxassislar ishtirok etdi. Shuningdek, UTT va EKG tekshiruvlari o'tkazildi. Shu bilan birga, xotin-qizlar ishtirokida "Xotin-qizlar reproduktiv salomatligi – sog'lom kelajak asosi" mavzusida profilaktik suhbat ham olib borildi.

TOQQQ matbuot xizmati

Mulohaza



BILIMLARINGIZNI qay ko‘rinishda MUSTAHKAMLAYSIZ?

O‘z vaqtida olingan har qanday bilim yangi marralarni kashf etish va egallash imkonini beradi. Demak, izlangan kishi alaloqibat faoliyatda ham, hayotda ham yutadi. Buni juda ko‘p bor ko‘rib guvohi bo‘lganmiz.

Mazkur maqolada ayni mavzu – bilim olishning sinalgan usul va uslublari xususida fikr yuritamiz. Demak, ko‘zlangan g‘alabani kalitiga ega bo‘lish uchun, avvalo, tinim bilmaslik kerak. Ha, o‘rganishdan qochmaslik lozim.

Masalan, ayrimlar yangi ma‘lumotni ko‘rish bilan u haqda taassurot oladi. Boshqalar eshitib yoki tinglash orqali bilimni oshiradi. Vazifalarni muntazam ravishda bajarish ham kishini marra sari yaqinlashtiradi. Ana shu jihatlarni to‘laligicha tushunganimizda ta‘lim jarayoni yanada samarali bo‘ladi.

Aytgancha, o‘rganishning turli uslublari ilmfan va pedagogika sohalarida keng tadqiq etilgan. Xususan, vizual shaklda – rasmlar, diagrammalar, jadvallar, xaritalar va boshqa ko‘rish vositalaridan foydalanish o‘quvchining o‘sha mavzuga bo‘lgan qiziqishini yuksaltiradi.

Ma‘lumotni tinglash, baland ovozda eshitish, suhbatlar orqali bilimni oshirish usullari ham mavjud. Bunday insonlar ayni jihatlarni o‘zlarida qo‘llagan holda mavzularni o‘rganish eng samarali usul deb biladi. Bu turdagi kishilar ma‘lumotni eslab qolishda tinglash jarayonini asosiy vosita sifatida ishlatadi. Shu bilan birga, ular mavzuni boshqalar bilan muhokama qilib ham taassurotni xotira “sandiqlariga joylab oladi.

Misol uchun, kimdir fizika yoki biologiya fanini tushunish uchun laboratoriya ishlarini bajaradi,

kimdir esa tarixiy voqealarni sahnalashtirish orqali yaxshiroq o‘rganadi. Amaliy faoliyat bilan bilim oluvchi o‘quvchilar uchun jismoniy faoliyatni qo‘shish, tajribalar va rolli o‘yinlar ko‘lamini oshirish – mavzuni chuqurroq o‘rganishda samarali hisoblanadi.

Albatta, har bir inson muayyan bir yo‘nalishdagi bilimni o‘rganish jarayonida o‘ziga xos yo‘llarni kashf etadi. Ba‘zida bu usullar maktab darslaridan, ba‘zida esa hayotiy tajribadan kelib chiqadi. Mening hayotiy tajribam esa bolalik davrimda oddiy, lekin juda samarali bir maslahatdan boshlangan.

Esimda, o‘shanda boshlang‘ich sinfda o‘qir edim. Ustozimiz bergan vazifalar – ko‘paytirish jadvallarini o‘zlashtirishda muammolarga duch keldim. Qanchalik harakat qilsam ham, raqamlar xotiramda uzoq saqlanib qolmasdi. Shu sababdan har safar o‘rgangan narsalarimni unutib yuborardim. Keyinchalik bu jarayonlar ruhiyatimga ta‘sir o‘tkaza boshladi. Tengqurlarim oldida boshim egib turgancha mulzam o‘tirardim.

Ana shunday kunlarning birida buvim yonimga kelib, hamma muammolarga birgina maslahat orqali yechim ko‘rsatdi.

– Bolam, raqamlarni his qil. Ularni baland ovozda takrorla. Natijada ikki usulda – ko‘rish va o‘z ovozingni eshitish orqali yod olasan.

Xullas, o‘shanda buvim aytganidek qildim. Natija esa kutganimdan ham ziyod bo‘ldi. Mana endi vazifalarni tez va samarali usulda bajara boshladim. Aslida bu bilim olishda oddiy, biroq muhim yo‘l edi. Ana shu haqiqatni vaqtida anglaganim – sinfdoshlarim oldidagi darajamni ko‘tardi. Bilimdonlar safiga qaytdim. Eng muhimi, o‘sha uslubdan nafaqat o‘quvchilik kezarimda foydalandim, balki keyinchalik harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishda ham qo‘llab keldim.

Harbiy kasbning sirlarini o‘rganish, bu yo‘nalishdagi bilimlarni o‘zlashtirishda komandirim, ustozim mayor Elbek Eshboboyevning fikrlari ham buvimning o‘g‘itlariga mos kelgani – faoliyatimda natijalar ko‘lamini oshirdi. Demak, “Biror bir bilimni o‘rganish jarayonida, ayniqsa sezgi organlari qanchalik ko‘p ishlasa, shunchalik ko‘p samara beradi, esda qoladi”.

Bu tajriba shuni ko‘rsatdiki, ilmiy metodlar va hayotiy maslahatlar birlashganda samara yanada oshadi. Ta‘limning turli uslublarni birlashtirish, sezgi organlarini faol ishtirok ettirish va takrorlash orqali inson bilimni tezroq, mustahkamroq va zavq bilan egallashi mumkin.

Ta‘lim olgan inson uchun eng samarali yondashuv – turli uslublarni birlashtirish va takrorlash orqali bilimni mustahkamlash hisoblanadi. Shaxsiy tajriba va ilmiy tushuntirish birlashganda o‘rganish jarayoni tezroq, osonroq va qiziqarli bo‘ladi. Shu bois o‘quvchilarga faqat nazariya emas, balki amaliyot orqali o‘rganish imkoniyatini berish muhimdir.

Mavzuga xulosa yasasam, har bir inson bilim olish jarayonida o‘z uslubini topish va uni takrorlash orqali izlagan yo‘lini chuqur o‘zlashtirish imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Faqat izlanish, o‘rganish va to‘siqlar qarshisida to‘xtab qolmaslik kerak. Ana shunda hayot va faoliyat kalitiga ega bo‘ladi – erishgan natijalar bilan isbotlaydi.

Aytgancha, sizda-chi? Sizda ham kamina nazariyada chig‘irig‘idan o‘tkazib, amaliyotda sinab ko‘rgandek bilim olish usulingiz bormi? O‘zi umuman, shu kabi jihatlarga e‘tibor qaratganmisiz?

O‘tkir JO‘RAYEV,

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Harbiy aviatsiya instituti IV bosqich kursanti

Sayyor qabul

XALQCHIL ISLOHOTLARNING hayotiy ifodasi

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari rahbariyati bilan hamkorlikda olis hududlarda o‘tkazib kelinayotgan ommaviy sayyor qabullar izchil davom ettirilmoqda.

Navbatdagi sayyor qabul Toshkent viloyatining Angren shahrida amalga oshirildi. Unda harbiy xizmatchilar, xodimlar, ularning oila a‘zolari, pensionerlar va yoshlar ishtirok etdi.

Dastlab ochiq muloqot o‘tkazilib, yurtimizdagi xalqchil islohotlar va ularning hayotiy ifodasi, harbiylar, ularning oila a‘zolari uchun yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar haqida atroflicha so‘z bordi.

So‘ngra soha mutaxassislari qatnashuvida murojaatlar tinglanib, ularni shu joyning o‘zida hal etishning amaliy choralarini ko‘rildi. Ko‘rib chiqish muddat talab etadigan murojaatlar nazoratga olindi.

Bundan tashqari, harbiy xizmatchilarning rafiqalari va yoshlar uchun bo‘sh ish o‘rinlari mehnat yarmarkasi, shuningdek 2026-yil 15-yanvardagi “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o‘rtasida kitob o‘qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori ijrosi doirasida kitoblar ko‘rgazmasi tashkil etildi.

Adliya podpolkovnigi Gulchehra TURSUNOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

Profilaktika

Harbiy prokuratura organlari tomonidan qator harbiy qism va muassasalarda huquqiy targ‘ibot-profilaktika tadbirlari amalga oshirildi.

TADBIRLAR DAVOM ETMOQDA

Muloqotlarda yangi qabul qilingan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati, shuningdek huquqbuzarlik tushunchasi, tasnifi, shu jumladan korrupsiya, giyohvandlik, kiberjinoyatchilik, firibgarlik, onlayn qimor, maishiy zo‘ravonlik, diniy ekstremizm va boshqa huquqbuzarliklar, ularning ayanchli oqibatlari va javobgarlik asoslari haqida tushuntirishlar berib o‘tildi.

Shuningdek, Ma‘naviyat kuni doirasida O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida navbatdagi ma‘rifat soati tashkil etildi. Unda

markaziy studiyadan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi va joylardagi studiyalardan hududiy harbiy prokuraturalar xodimlari ishtirok etdi.

Videokonferens-aloqa shaklidagi muloqotda Transport universiteti Xalqaro ommaviy huquq kafedrasida falsafa fanlari doktori, dotsent M. Isakova o‘z ma‘ruzasi bilan qatnashdi.

Jarayonda mavzu doirasida fikr-mulohazalar almashildi.

Adliya podpolkovnigi G‘iyosiddin RAXMONOV,
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining yordamchisi



JISMONIY BARKAMOLLIK va g'alaba ruhi

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi, ruhiy barqarorligi va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada sport musobaqalari muhim o'rin tutib, ular harbiylarning kasbiy mahorati bilan bir qatorda jismoniy barkamolligini ham mustahkamlashga xizmat qilmoqda.



Ana shunday sport tadbirlaridan biri – Mudofaa vazirligi qo'shinlari terma jamoalari o'rtasida o'tkazilgan "Mudofaa vaziri kubogi" musobaqasi bo'ldi.

Mazkur musobaqalar doirasida sambo, erkin kurash hamda yunon-rum kurashi bo'yicha turli vazn toifalarida bellashuvlar tashkil etildi. Unda qo'shin va harbiy birlashmalardan shakllangan jamoalar ishtirok etib, yuksak mahorat, matonat va g'alaba sari intilish namunalarini namoyon etdi.

Bellashuvlar qizg'in, murosasiz va yuksak ruhda o'tib, har bir ishtirokchi g'alaba uchun bor kuch-g'ayratini safarbar etdi. Bu esa harbiy sportchilarning nafaqat jismoniy, balki irodaviy tayyorgarligi, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati va raqobat sharoitida o'zini boshqara olish salohiyatini yaqqol ko'rsatdi. Musobaqalar yakuniga ko'ra, sambo sport turida Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug (JG'MHO) jamoasi eng yuqori natijani qayd etib, 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Ikkinchi o'rin Toshkent harbiy okrugi (THO) jamoasiga, 3-o'rin esa Markaziy harbiy okrug (MHO) jamoasiga nasib etdi.

Erkin kurash bo'yicha bellashuvlarda Mudofaa vazirligi qo'mondonligi jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. Ushbu turda Toshkent harbiy okrugi ikkinchi, Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi esa uchinchi o'rinni egalladi.

Yunon-rum kurashi sport turida Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi (TOQQQ) jamoasi raqiblaridan ustun kelib, 1-o'ringa sazovor bo'ldi. Ikkinchi o'rin Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug jamoasiga, uchinchi o'rin esa Toshkent harbiy okrugi jamoasiga nasib etdi.

Umumjamoat hisobida jami natijalarga ko'ra, "Mudofaa vaziri kubogi" Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug jamoasiga topshirildi. Ikkinchi o'rinni Toshkent harbiy okrugi jamoasi, uchinchi o'rinni esa obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi

Toifalangan jamoasi egalladi. Bu natijalar qo'shinlar o'rtasida sport sohasida olib borilayotgan tizimli ishlarning samarasini yana bir bor tasdiqladi.

Ayni paytda Mudofaa vazirligi tizimida sport infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy mashg'ulot bazalarini yaratish, murabbiylar salohiyatini oshirish va iqtidorli harbiy sportchilarni saralab olishga qaratilgan ishlar izchil davom etmoqda. Bunday musobaqalar esa xizmat jarayonida jismoniy chidamlilik, tezkorlik va kuch talab etiladigan harbiy kasb uchun mustahkam poydevor yaratib bermoqda.

Shuningdek, bu kabi musobaqalar yosh harbiy xizmatchilarni sportga keng jalb etish, ularda g'alaba ruhini shakllantirish va xalqaro maydonlarda mamlakatimiz sharafiga himoya qila oladigan sportchilarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida bunday musobaqalar ko'lamini yanada kengaytirish, sport turlari sonini oshirish hamda harbiy sportchilarning respublika va xalqaro musobaqalardagi ishtirokiga keng yo'l ochilishi rejalashtirilmoqda.

Shubhasiz, sportga qaratilgan e'tibor harbiy xizmatchilarning jismoniy va ma'naviy salohiyatini oshirish, qo'shinlarda sog'lom muhitni qaror toptirish va yurtimiz mudofaa qudratini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ro'ziqul OCHILOV,
"Vatanparvar"



TINCHLIK QADRI

Insonga berilgan eng ulug' ne'mat nima ekani haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Yo'qmi?! Men esa bu haqda bosh qotirib ko'rganman. To'g'rirog'i, qatnashish qismatimda bitilgan "Afg'on urushi" deb atalgan mash'um urushda kechgan hayot-mamot orasidagi kunlarimning har daqiqasi menga shu savolni ko'ndalang qo'ygan.

Aytsam, ishonmassiz, lekin o'shanda ayni o'n to'qqizga o'tgan paytlarim edi. Eng ulug' ne'mat – bu bizga berilgan hayot! Uni qanday yashashimiz, qanday sarf etishimiz esa o'zimizga bog'liq. Hayot so'qmoqlari goh-goh bizni o'zimiz istamagan tarablarga chirpirak qilib olib ketadiki, ular almisoqda bitilgan taqdir yozig'imiz harflaridagi zer-u zabarlari, ilmoqchalari ekaniga iymon keltirishdan boshqa ilojingiz qolmaydi...

Jangchilar o'rtasida menga yoqqan shunday bir an'ana bor ediki, bu yillar osha saqlanib, uni yosh askarlar hamon davom ettirib kelmoqda edi. Bu – harbiy amaliyotga ketish chog'ida va undan qaytishdek quvonchli onlarda yo'l chetida nimaningdir ilinjida turgan afg'on bolakaylariga

sovg'alar ulashish edi. Sovg'alar salmog'i jangga ketayotganimizda kamroq, qaytayotganimizda esa ko'proq bo'lardi, buning sababi ayon: borishda oziq-ovqatimizni tejaymiz, qaytishda esa o'zimizdan orttirganlarimizni bolakaylarga tarqatamiz.

Shunday farahbaxsh kunlardan biri. Alixeyl amaliyotidan Gardez shahrining chekka ko'chalari bo'ylab qaytyapmiz. Yo'l chetida to'p-to'p bo'lib turgan bolakaylarga kimdir non, kimdir shirinliklar, yana kimdir konserva mahsulotlaridan ulotirib kelmoqda.

"Baxshish, davay, baxshish, davay", deganча pushtun va rus tillari qorishmasida baqirayotgan bolalar ovozi harbiy texnikalar shovqini ostida yo'qolib ketar, sovg'aga erishganlari xursand – o'ljani qo'ldan chiqarmaslik maqsadida o'zini tezda to'dadan chetga olar, sovg'a tegmagan alamzadalar esa sherigining qo'lidagidan umidvor bo'lib unga tashlanib qolar va hatto o'zaro tortishib qolishgacha ham borardi.

Ayrim joylarda esa bolalarini yo'l chetidan olib ketishga besamar urinayotgan parangi yopingan ayollar ham ko'rinib qolar, erkaklar deyarli ko'rinmasdi. Yonimda o'tirgan Jenya qo'lidagi bir quti

pechenyesini namoyishkorona aylantirganча ulotirayotganda unga qistirib bog'lab qo'yilgan granata zapaliga ko'zim tushdi. "Nima qilyapsan, Jenya?" deganча qo'lidagini ulotirishiga to'sqinlik qilmoqchi bo'ldim. Afsuski, ulgurmadim. Uning qo'lidan ozod bo'lishi bilan ochilgan saqlagichning "shirq" etib chiqargan ovozi texnikalar g'ovuri ichidan quloqlarimgacha yetib keldi.

Portlovchi pechenye havoda uchib borar ekan, "baxshish" umididagi besh-olti nafar bolakay uni tutish ilinjida bir-birini quvlaganча u tomon intildi. Buni xuddi futbol maydonida burchakdan tashlab berilgan to'pga egalik qilmoqchi bo'lgan o'yinchilar holatiga o'xshatish mumkin edi. Lekin pechenye hech kimning qo'liga tushmasdan o'tib, eng orqada qolgan, yosh jihatdan tengqurlaridan kichikroq bo'lgan bolaning panjalari orasiga tushdi va o'zini ortga tashlab, pechenye ushlagan qo'llarini ko'kragi bilan bosganча yerga yiqildi. Sheriklari uning qo'lidagiga egalik qilish uchunmi yoki "o'yin"ga qiziqib ketganidanmi, o'zlarini uning ustiga otdi. Shu damda "paq" etgan tovushni eshitdim va biz ketayotgan mashina yo'l chetidagi uy yoniga yetishi bilan uning tomi bizni voqea joyidan to'sib qo'ydi. Shu sabab "o'yin"ning oxirini ko'rolmadim. Balki, ko'rmaganim yaxshi bo'lgandir.

– Bu nima qilganing, Jenya, axir ular bolalar-ku! – deya uning ko'zlariga qaradim. Unda o'z qilmishidan pushaymonlikni emas, balki dushmanidan o'ch olgandek sovuq yiltillashni ko'rib, etim jimirlab ketdi.

– Dushmanning bolasi ham dushman! – dedi sovuq iljayib.

– Juda xunuk ish qilding, bu javobsiz qolmaydi, – endi uning sovuq yuziga qaragim kelmas, unga qarshi aytilgan so'zlarim faqat shu bo'lgandi.

"O'yin"ning oxirini ko'rmagan bo'lsam-da, u norasida bolaga qanchalik jiddiy jarohat yetkazganini tasavvur qila olardim. Bir necha oy burun, xizmati tugab, uyga qaytishiga bir-ikki hafta muddat qolgan bir askar postda turib, bekorchilikdan o'zini chalg'itish maqsadida granata zapalini o'ynab, qo'lida ochib qo'ygan holatini hali yodimdan chiqarganim yo'q. Granata zapalining o'zi uning o'ng qo'lini uzib ketgan, ustiga-ustak, kichik oskolkalari yuziga va ko'ziga tekkandi.

O'zlariga gap tegishidan qo'rqqan boshliqlar uni "jang

paytida qahramonlik ko'rsatib qattiq yaralandi" qabilidagi soxta ma'lumotlar bilan mukofotga tavsiya qilib, gospitalga jo'natgandi. "Zapal portlashi xavfli emas, granata qobig'i bilan portlashi xavfli", deb noto'g'ri tushungan bir yigit mayib-majruh bo'lib uyiga qaytgandi.

Gardez shahri tinch aholi yashaydigan maskan hisoblanar, bundan bir necha yillar ilgari panadan qo'rqinch bilan mo'ralaydigan bolalar hozirda do'stona "baxshish" so'raydigan darajaga kelgandi. Shu birgina nojo'ya harakat qanchadan qancha ko'ngilsizliklarga sabab bo'lishi mumkin. Tinchlik o'rnatish niyatida kirgan qo'shinning barcha harakatlari shu birgina bolalarcha "sho'xlik" tufayli havoga sovirilishi mumkin edi. Ular "intiqom"ni uzoq kuttirmadi: o'sha kuni kechqurun shlagbaumda turgan soqchini otib ketdi...

Shaxsan o'zim guvohi bo'lgan ushbu ayanchli voqeani sizlarga so'zlashdan maqsadim, tinchlik tizgini qo'ldan chiqarilgan qaysiki yurt bo'lmasin, bunday beboshliklar urchishini nazorat qilishning imkoni qolmasligini ta'kidlashdir.

Yurtimizdan birgina daryo – Amudaryo ajratib turgan, bu mamlakat bilan jonajon O'zbekistonimni bir ariqning ikki chetida o'sib, baquvvat tomirlari-yu kumushrang butoqlari tutashib ketgan azim qo'sh chinorga o'xshataman.

Men balandparvoz gaplar ustasi emasman, ammo shu o'rinda "ajdarho komida" o'tgan kunlarimga achinib, chuqur e'tirof va shu bilan birga ulkan havas bilan bugungi kunda yigitlik burchini o'z Vatanda o'tayotgan askarlarimizga hamda chaqiruv yoshidagi bo'lajak harbiylarimizga shunday degim keladi: "Siz, aziz yoshlarga achchiq hayotiy tajribamdan birgina lavha keltirdimki, undan qanday xulosa chiqarish o'zingizga havola. Zero faqat nodonlarga o'z xatosidan, donolar esa o'zgalar xatosidan xulosa chiqaradi. Siz esa, qadrdonlarim, dono bo'ling! Ortingizda O'zbekiston atalmish Vatan turganini bir daqiqa ham yoddan chiqarmang! Oyoqlaringiz ostida jonajon Vatanning muqaddas tuprog'i taftini his eting! Ortingizda buyuk xalqimiz, ular qatorida ota-onangiz sizga umid bilan ko'z tikib turganini unutmang! Tinchligimiz qadriga yeting! Qo'lingizga ishonib topshirilgan qurol o'yinchoq emasligini uni ishlatib ko'rmasdan avval anglang!

Inson hayotining bir chaqachalik qadri bo'lmagan u davrlar biz uchun ortda qolgani rost bo'lsin. O'zbekiston mustaqilligining 35 yilligi arafasida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi, avvalo, tinchligimiz sharofatidan. Yoshlar kamoloti yo'lida qilinayotgan ishlar, qabul qilinayotgan qonun va qarorlar, kelajagimiz bunyodkorlarining ma'naviyatini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahsinga sazovor".

Ilyos AZIZOV,
Kitob tumanidagi
35-umumta'lim maktabi
ChQBT rahbari



Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Samarqand viloyati kengashi tasarrufidagi Samarqand shahri 2-sonli o‘quv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasida yoshlar bandligini ta’minlash, ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash, harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida tizimli va samarali ishlar bajarib kelinmoqda.

YOSHLAR UCHUN IMKONIYATLAR



Ayni paytda markazda yoshlarning jismoniy jihatdan yetuk bo'lishlariga ham katta ahamiyat qaratilmoqda. Ular har tomonlama qo'llab-quvvatlanib, sport to'garaklarida muntazam ravishda shug'ullanib kelmoqda. Shu bois sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, turli to'garaklar ishini yo'lga qo'yish, musobaqalar tashkil etishda muayyan natijalarga erishilmoqda.



Xususan, o'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan yumushlar shular jumlasidandir.

– Bajarilayotgan ishlar ko‘lamini yanada yaxshilash maqsadida turli tashkilotlar bilan hamkorlikda joylarda yoshlar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, turli musobaqalar, ma’naviy-ma’rifiy va harbiy-vatanparvarlik tadbirlari o‘tkazilmoqda,



– deydi markaz direktori Alisher Usmanov. – Bunday tadbirlar ayniqsa O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan “Milliy armiya – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni!” shiori ostida o‘tkazilgan “Vatanparvarlik oyligi” doirasida yanada ahamiyatli bo‘ldi. O‘quvchi-yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etish maqsadida Samarqand shahridagi 7-, 10-, 21- hamda 40-umumta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari o‘rtasida sportning texnik va amaliy turlaridan musobaqalar tashkil etildi. Albatta, bunday tadbirlar yosh avlod qalbi va ongida Vatan kelajagiga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirishga xizmat qilishi shubhasizdir.



Bundan
tashqari,
malakali
haydovchilarni
uyyorlash,

qayta tayyorlash va ular
malakasini oshirish ham tashkilot
faoliyatining muhim yo'nalishlaridan
biridir. Ayni paytda bu boradagi
ishlar muvaffaqiyatli bajarilmoqda.

Shu kunlarda markazda "B", "BC" toifali haydovchilikka nomzodlar o'qitilmoqda. Buning uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berildi. Mavjud avtomobillar parki yangi zamonaviy o'quv-mashq avtomobillari bilan ta'minlandi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mazkur tashkilotda ham barcha ishlar "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi va viloyat kengashi tomonidan belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda amalga oshirilmoqda.

Akbar ALLAMURODOV

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA
REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA



Buxoro amirligida HARBIY ORKESTRLAR faoliyati

Amir Temur o'zining "Temur tuzuklari" kitobida shunday deb yozgan edi: "Men buyruq berdimki, agar biron-bir amir bir mamlakatni zabt etsa va dushman qo'shinini mag'lub etsa, uni uch karra mukofot — bayroq, baraban va qahramon unvoni kutmoqda". Bayroq va qahramon unvonlari tushunarli, lekin nima uchun baraban?

Bizning davrimizda yozilgan mashhur qo'shiqqa ko'ra, "Qo'shiq bizga qurishga va yashashga yordam beradi..." Buyuk harbiy qo'mondon Temur bunga ishongan va bundan tashqari, u o'z qo'shinida musiqaga katta strategik ahamiyat bergan. Qo'mondon bu askarlarning ruhini ko'taradi, jasorat va vatanparvarlikni targ'ib qiladi, deb hisoblagan.

Harbiy orkestr Buxoro amirligida ham katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Said Olim o'n uch yoshida otasi Abdulahadxon tomonidan uch yilga davlatni boshqarish va harbiy bilimlarni o'zlashtirish uchun Sankt-Peterburgga yuboriladi. 1896-yili u Rossiyadan shahzoda sifatida Buxoroga qaytib kelishida o'zi bilan rus millatiga mansub harbiy orkestr musiqachilaridan iborat jamoani amirlikka olib keladi.

XIX asr boshlarida harbiy orkestrlar "bolobomchi" deb nomlangan, bu "balandda, tomdagilar" deb tarjima qilinadi. Shunday qilib, biz musiqachilar, ayniqsa harbiylar, har doim yuksak hurmatga sazovor bo'lganini ko'ramiz. Dastlab u yetmish

a'zodan iborat edi, jumladan 14 ta barabanchi (*nog'orachi*), 14 ta fleytachi (*naychi*), 2 ta dulchi (*turk barabanining bir turi*), 4 ta surnaychi va 6 ta karnaychi.

Bolobomchilarning maqsadi harbiy harakatlar paytida askarlarning kayfiyatini ko'tarish edi. Ular qatl paytida ham musiqi ijro etgan. Abdulahadxon va Said Olimxon hukmronligi davrida harbiy musiqachilarga alohida e'tibor qaratildi. Ular harbiy libos kiygan va milliy musiqi asboblari, shuningdek yevropacha uslubdagi cholg'ular bilan "qurollangan" edi. XIX asrning oxirlariga kelib, bolobomchilar har bir harbiy qismda tashkil etila boshlandi. Ular harbiy mashqlar, bo'linmalarni ko'rib chiqish, xorijiy amaldorlarning tashriflari, amaldorlarni tayinlash, amirning qishki qarorgohi — Arkdan ketishi va qaytishi hamda boshqa rasmiy marosimlar paytida marshlar ijro etdi. Abdulahadxon hukmronligi davrida askarlar 60 yoshgacha, bolobomchilar esa 30–35 yoshgacha xizmat qildi, shundan so'ng ular muntazam armiyada oddiy askarlar safiga o'tdi.

Harbiy musiqachilarga bo'lgan munosabatga kelsak, ularning maoshlari boshqa askarlarnikidan yuqori bo'lganini ta'kidlash joiz. Shunday qilib, XIX asr boshlarida oddiy askar 20 tanga, bolobomchi 35 va dirijyor (*mujur*) 60 tanga olgan bo'lsa-da, albatta ularning hayoti uchun ham xavf bor edi: harbiy yurishlar paytida harbiy musiqachilar bayroqdorga ergashib, oldingi saflarda yurardi.

Buxoro xonligining so'nggi hukmdorlari Abdulahadxon va Said Olimxon armiyani isloh qilishni boshladi. Ularning qo'l ostida harbiy qismlar tashkil etildi va harbiy orkestrlar faoliyat yuritishi shart edi. Ularga yiliga uch marta almashtiriladigan harbiy liboslar berildi. Dirijyorda rus qilichi va Berdan to'pponchasi bor edi.

Buxoro xonligi harbiy orkestrida xizmat qilgan Vlasinko Vasiliy Semyonovich harbiy xizmatdan so'ng Buxoroda qolib, musiqi va san'at maktabida damli musiqi asboblardan ko'p yillar davomida dars beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'sha davrdagi harbiy orkestrlar Buxoro xonligining chinakam faxri bo'lgan va harbiy libos, ijro mahorati yoki harakatchanligi jihatidan yevropalik hamkasblaridan qolishmagan.

**Mayor Jo'rabek NAZAROV,
Chirchiq garnizoni
ma'naviyat va ma'rifat
markazi harbiy orkestr
boshlig'i**



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Alisher Ergashev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti — "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: leytenant Mansurbek Jabborov

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva

Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: 297

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 34 076 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Muruvvatli-dil press" MChJ mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"Muruvvatli-dil press" MChJ

bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Chilonzor tumani "Nafosat" MFY Qatortol ko'chasi, 21-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan
tahririyati bilan bog'lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz

[mudofaavazirligi](https://www.facebook.com/mudofaavazirligi)

[mudofaavazirligi](https://www.instagram.com/mudofaavazirligi)

www.youtube.com/c/UzArmiya